

جدید

2025-yil 21-noyabr
№ 47 (99)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

JAZOLANGAN JASORAT

“...Qattol siyosiy muhitda
Rajab Muhammadov
ham “millatchi va
aksilinqilobchi” degan
tamg'a bilan o'n yillar
kuzatuv ostida yashashga
majbur bo'ldi. 1937-yil
9-yanvar kuni u rasman
hibsga olindi...”



(7-sahifada o'qiling.)

ONAJONIM - TABIAT!

YASHIL KELAJAK SARI

Bugun yurtimizdagi afkor omma jadal rivojlanishlar va iqtisodiy o'sishlarni e'tirof eta turib, ekologik muammolar tahdidiga ham o'z qat'iy munosabatini bildirib kelmoqda. Sir emaski, atmosfera ifloslanishi, global iqlim o'zgarishlari, o'rmon yong'inlari, muzliklarning tez sur'atlarda erib borishi va quruqlikning chekinayotgani dunyo aholisi salomatligi, biologik xilma-xillik, umuman, ekologik barqarorlikka xavf solyapti. Mazkur ekologik masalalarning oqibatlarini yumshatish borasida yurtimizda ham keng ko'lami chora-tadbirlar amalga oshirilayotganiga barchamiz guvohmiz. Jumladan, 2025-yil 19-noyabr kuni “Ekologiya va turizm sohasida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident farmoni ham ushbu sohaga qaratilgan jiddiy e'tiborning yaqqol tasdig'idir.



(Davomi 2-sahifada.)

TAHLIL



MASLAHATLI TO'Y TARQAMAS

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari bir-biriga birodar bo'lgan mintaqamiz ulkan va qudratli salohiyatga ega markaz ekanligini amalda isbotladi.

2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat

uchrashuvlarini tashkil etish g'oyasi qo'shni davlatlar tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlangan edi. 2018-yildan boshlab Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvlari muntazam o'tkazila boshlandi. Bunday uchrashuvlar doirasida ko'plab muammoli masalalar oqilona tarzda hal etildi. Hududiy nizolar, suv taqsimoti, chegara va boshqa dolzarb masalalar kun tartibiga kiritildi.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi katta muvaffaqiyat bilan o'tkazildi. Birinchidan, sammit arafasida davlatimiz rahbarining e'lon qilingan “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” nomli maqolasi ishtirokchilar uchun muhim, ijobiy va sog'lom muhit yaratdi.

(Davomi 4-sahifada.)

VATAN MANZUMASI

O'zbekiston

Chayqalib yotibdi nurli bir chaman,
Oy bilan oftobning buyuk vatani.
Tong kabi jilmayib – baxti ochilgan,
Maysaga ko'milib nurli badani.

Osmon posbonidir bunda burgutlar,
Chumchuq chug'uridan teshiladi tom.
Bu o'lka ko'ksida yonar bulutlar,
Chinor shoxlariga qo'nganida shom.

Ne-ne daryolar bor, yugurib-yelib,
Ummonda qolarlar bir umr yaxlab.

Bu chaman bag'riga daryolar kelib
Zaminga singlarlar, g'o'zaday shoxlab.

Ko'zyoshdek tiniqdir bu elda osmon
Shaftoli shoxlari qayrilgan onda.
Naqsh olma yuziga yugurganda qon
Oftob ham osilib, tolar armonda.

Bu elning qadimiy har qo'shig'ida
Bejiz oltin deya atalmas tuproq.
Simyog'ochga qo'ngan qush tumshug'ida
Tilladay nurlanib turibdi boshqoq.

Chayqalib yotibdi nurli bir chaman,
Yulduzday sochilib olamga shoni.
Fidoi o'g'ilman, yonib o'paman
Olam ostonasi – O'zbekistonni!

Tilak JO'RA

MUNOSABAT

“BIZ DEVOR EMAS, KO'PRIK QURYAPMIZ!”

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston” gazetasining shu yilgi 13-noyabr sonida e'lon qilingan “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” sarlavhali maqolasida Markaziy Osiyo o'z taraqqiyotining yangi, tarixiy ahamiyatga molik bosqichiga qadam qo'yayotgani aytiladi. Bu o'z-o'zidan paydo bo'lib qolgan jarayon emasligi, balki umumiy taqdiri va birgalikda taraqqiy etish salohiyatini anglab yetgan mamlakatlarimiz yetakchilarining aniq maqsadga qaratilgan sa'y-harakatlari va siyosiy irodasi natijasi ekani qayd etildi. Shuningdek, bu jarayon zarurat yanglig', Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlari tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgani ham ta'kidlandi.

Ayni paytda, uchinchi muhim omilni ham aslo esdan chiqarmasligimiz kerak. Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston



rahbari sifatida tomonam yangi tashqi siyosat boshladi va buni izchil amalga oshirib kelmoqda.

(Davomi 3-sahifada.)

FAKT

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Ekologiya va turizm sohasida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni imzolandi.

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi tashkil etildi.

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga ko'ra, 2040-yilga borib O'zbekistondagi jamiki uy-joylarning 50 foizini zamonaviy uy-joylar tashkil etishi ko'zda tutilgan.

✓ Futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi FIFA reytingida Qatarni ortda qoldirgan holda, Yaponiya, Eron, Janubiy Koreya va Avstraliyadan keyin Osiyoda beshinchi o'rinda qayd etildi.

NUQTAYI NAZAR

“NEGA YAPON YUZ YIL YASHAR-U...”

Yaponiyaning “TOHO SERVICE” aksiyadorlik kompaniyasi bosh direktori vazifasida faoliyat yuritayotgan millatdoshimiz Bahodir Iskandarov bilan suhbat

– Har bir davrning o'z tosh-tarozisi, o'lchovi bo'ladi. Yoshi ulug' avlod doimo yoshlarga nisbatan talabchanroq bo'lib boradi. Bu tabiiy holat – taraqqiyotning o'zi shunday jarayon. Ustoz Erkin Vohidovning “Eh, hozirgi yoshlar” degan mashhur she'rining umrboqiyli shundaki, avlodlar o'rtasidagi munosabat, talab va intilish ham abadiy mavzudir.

Bugun ham go'yo yoshlar “aynib” ketgandek, yangi zamon taloto'plari ichida yo'qolib borayotgandek tuyuladi. Biroq har davrda ajdodlar ruhini, milliy qadriyatlarimizni yuragida asrab kelayotgan, yuksak ma'naviyatni o'z hayotida ifoda etayotgan yoshlarimiz ham ko'p. Ana shunday yigitlardan biri – Yaponiyada faoliyat yuritayotgan Bahodir Iskandarov... U Samarqand viloyati Oqdaryo tumani Yangiqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. Yaponiyaga bilim olish niyatida kelgan, ta'limni muvaffaqiyatli yakunlab, o'tgan o'n yil davomida katta tashkilot rahbarligigacha ko'tarilgan.



– Bahodir, ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlaringizda millat taqdiri uchun kuyunish, ma'rifat va fidokorlikni ko'raman. Ayting-chi, buning asosi nimada deb o'ylaysiz?

(Davomi 6-sahifada.)



YASHIL KELAJAK SARI



Boshlanishi 1-sahifada.

Farmonga muvofiq, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Vazirlar Mahkamasi tizimidan chiqarildi hamda amaldagi shtat birliklari saqlangan holda uning negizida Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi tashkil etiladigan bo'ldi. Uning zimmasiga qator ustuvor vazifalar yuklatildi: yurtimizda ekologik barqarorlikni ta'minlash; atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha davlat siyosatini izchil yuritish; "Yashil makon" umummilliy loyihasini keng miqyosda amalga oshirish; o'rmon maydonlarini ko'paytirish, bioxilma-xillikni asrash; global iqlim o'zgarishi ta'sirlarini yumshatish; cho'llanish va yer degradatsiyasiga qarshi samarali choralar ko'rish shular jumlasidandir.

Shu bilan birga, yangi qo'mita mamlakatda ekologik siyosatning yagona markazdan boshqarilishi va tizimli muvofiqlashuvini ta'minlashi kutilyapti. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tarkibida ikki shtat birligidan iborat Ekologiya masalalari bo'yicha Prezident maslahatchisi bo'linmasi tashkil etilgani ekologik siyosatni strategik darajada muvofiqlashtirish va nazoratni kuchaytirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi rahbari, O'zbekiston Ekologik partiyasi Markaziy Kengashi Ijroiya qo'mitasi raisi Abdushukur Hamzayev:

"Ushbu islohotlar mamlakatimiz rahbariyati ekologik barqarorlikni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish yo'nalishida aniq va uzoqni ko'zlangan maqsadlarni belgilab olganini tasdiqlaydi. Yangi tizim ekologik nazorat samaradorligini oshirish, kompleks yondashuvni ta'minlash uchun muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Ekologik partiyasi va uning Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi sifatida biz ushbu oqilona va qat'iyy siyosatni to'liq qo'llab-quvvatlaymiz. Davlatimiz rahbarining ekologiya sohasida ichki va tashqi siyosatda yangi pragmatik g'oyalari ilgari surayotganini yuksak e'tirof etib, shu kabi g'oya va tashabbuslariga o'z hissamizni muntazam qo'shib boramiz".

Ekologiya qo'mitasi raisining 4 nafar o'rinbosari Prezident tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi, maqomi, mehnatga haq to'lash, tibbiy xizmat va transport ta'minoti sharoitlari bo'yicha tegishli ravishda Prezident maslahatchisi o'rinbosarlariga tenglashtiriladi. Ekologiya qo'mitasi raisi bir vaqtning o'zida Ekopolitsiya boshlig'i hisoblanadi.

Shuningdek, farmonga muvofiq Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasining 40 nafar shtat birligi asosida Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi (Ekopolitsiya) tashkil etiladi. Ekopolitsiya xodimlariga jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni (elektroshoker qurilmalarini) va xizmat qurolini (rezina o'qli,

to'r otuvchi) qo'llash huquqi beriladi hamda ularning maxsus kiyimiga bodi-kameralar o'rnatiladi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zosi Oybek Rahimov: "Ekologik monitoringning raqamlashuvi va yangi ekspert platformalarining joriy etilishi davlat, biznes va fuqarolik jamiyati ishtirokini kengaytirib, ekologik boshqaruvni ochiq va barqaror modelga olib chiqadi".

Farmonga muvofiq Ekologiya qo'mitasi huzurida "Ekoloyihalar fabrikasi" tashkil etiladi. Ekologik tashabbuslarni mahalliy darajada qo'llab-quvvatlash, aholi o'rtasida atrof-muhit madaniyatini oshirish va yoshlarning eko-faolligini kuchaytirish ham muhim vazifalardan biri sifatida ko'rilyapti.

Yangi hujjatlar ma'muriy o'zgarishlar bilan cheklanmay, javobgarlik, jamoatchilik nazorati va raqamli monitoringni birlashtirgan kompleks tizimni joriy qilyapti. Jumladan, 2026-yil 1-apreldan ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun yuridik shaxslarga qo'llanadi; bir xil huquqbuzarlik uchun moliyaviy sanksiyalar qo'llangan yuridik shaxslarning xodimlariga ma'muriy jazo chorasini qo'llashga yo'l qo'yilmaydi; huquqbuzarlikning takroran sodir etilishiga yo'l qo'yimaslik haqida ogohlantirish olish hamda jarimani to'lash qonunchilikning buzilishiga yo'l qo'ygan shaxsni Ekologiya qo'mitasining qarorini (taqdimnomasini, ko'rsatmasini) bajarish majburiyatidan ozod etmaydi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi Toshkent shahar partiya tashkiloti raisi Sevara Fayziyeva: "Bu farmon mamlakatda ekologik boshqaruvni modernizatsiyalash va turizmni yanada barqaror rivojlantirishga yo'naltirilgan. Mahalliy kengash deputatlari sifatida biz ushbu farmonning joylarda samarali ijro etilishini ta'minlash, yangi boshqaruv tizimini qo'llab-quvvatlash, aholi bilan bevosita ishlashda ekologik madaniyatni oshirish va turizm infratuzilmasini mustahkamlash borasida faol ishtirok etishga tayyormiz".

Ko'rinib turibdiki, "Yashil makon", "Toza havo", "Bio-meros", "Eko-madaniyat" kabi loyihalarining aniq vakolatli organ tomonidan boshqarilishi ekologik dasturlarga uzoq muddatli maqsad-natijalarga yo'naltirilgan davlat siyosatiga aylaniradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda ekologik xavfsizlik davlat siyosatida alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilanyapti. Ushbu ijtimoiy, mas'uliyatli islohotlar ekologik barqarorlikni milliy taraqqiyotning alohida yo'nalishi emas, uning asosiy shartlaridan biri sifatida shakllanishiga asos bo'ladi.

Islomjon QO'CHQOROV,
O'zbekiston Ekologik partiyasi
Markaziy Kengashi raisi o'rinbosari

Boshlanishi 1-sahifada.

Eng zarur qurilmalar, barcha yadroviy zarralar manbalari va yangi avlod texnikalarining bir joyda jamlangani ularda juda katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu ilmiy hamkorlikning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shib kelyapti.

Institutimizda yadro fizikasi, qattiq jismlar fizikasi va materialshunoslik, radiokimyo va yadro analitikasi, yadro energetikasi, ilmiy asbobsozlik yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilyapti.

Institut ishlanmalari Respublikamiz va undan tashqarida ham keng amaliyotga tatbiq etilmoqda. Neft-kimyo va tog'-kon sanoatlari uchun texnologik nazorat qurilmalari yetkazib berilmoqda hamda sanoat chiqindilaridan oltin

davolab bo'lmaydigan, kimyoviy terapiya ta'sir qilmaydigan holatlarda ishlatiladi.

Mahsulotlarimizdan biri Lyutetsiy-177-PSMA-617 dori vositasi prostata bezi saratonini davolashda yuqori samara beriyapti. Toshkentdagi Nano medikal klinik kasalxonasida shu radiofarmatsevtik dori vositasining qo'llanilishi 92 foiz ijobiy natija berdi. Samariy-153-Oksabifor preparati esa suyak metastazasida og'riqni butunlay qoldirib, o'simta o'sishini to'xtatib turadi. To'g'ri, butkul yo'qotib yubormaydi, lekin yetib kelgan darajasida remissiyada ushlab turib, 6 oygacha og'riqsizlantirib beryapti. Olingan natijalar haqida bir nechta ilmiy konferensiyalarda ma'ruza qilingan. Qalqonsimon bezning turli kasalliklarini davolashda, Yod-131 izotopi asosida olingan

kimdir keladi, qo'ng'iroqlar to'xtamaydi. Mana shunaqangi paytda nima qilishingizni bilmay qolasiz-da, qizim.

Xudoga shukur, muhtaram Prezidentimiz tashabbusi va qo'llab-quvvatlovi bilan Markaziy Osiyoda yagona shu turdagi reaktor, O'zbekistondagi tanho bo'lgan shunday institut qayta tiklandi.

Ammo yopilish asorati hali to'liq bitmadi. Ko'p mutaxassislarimiz ketib qoldi. Ba'zi yo'nalishlarimiz berkildi. Mana, olti-etti yil o'tdi, lekin ba'zi tadqiqotlarimizni haligacha qaytadan tiklab olmayapmiz.

– Bunga sabab nima?

– Bizning yadro reaktorimizni bir tana desak, uning qoni – yoqilg'i. Hozirgacha 2018-yilda Prezident topshirig'i bilan sotib olingan yoqilg'ini

ATOMDAN KUCHLI...

va kumush qoldiqlarini ajratib olish imkonini beruvchi amaliy ishlar olib borilmoqda. NKMK, OKMK O'ZQQCHM asosiy ishlab chiqarishlariga qo'shimcha ravishda o'ta toza skandiy, reniy, tellur palladiy va boshqa metallarni ajratib olish texnologiyalari ishlab chiqildi.

Institutda radioaktiv manbalar holati nazorati, attestatsiyasi va xizmat qilish vaqtini uzaytirish bo'yicha tizim, shuningdek, butun Respublika hududidan radioaktiv chiqindilarni yig'ib olish va ko'mish ishlari yo'lga qo'yilgan. Radioaktiv va yadro materiallarning noqonuniy aylanishi oldini olish maqsadida, ularning oz miqdorini ham aniqlash imkonini beruvchi tizim yaratildi. Institut maxsus xizmatlar uchun kontrabanda materiallari ekspertizasini qilib beradi. Institut o'zining analitik xizmati bilan atrof-muhitni himoya qilishda faol ishtirok etib kelyapti. Suv va havoni tozalashning effektiv tizimlarini yaratganmiz.

Tibbiyot sohasida import o'rni bosuvchi radiodiagnostik va radioterapevtik mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi, radiatsiyaviy va kimyoviy sterilizatsiya uslublari yaratildi, turli kasalliklarda mikroelementlar rolini aniqlovchi analitik uslublar yaratildi. Bu sohada muassasamiz azaldan nafaqat Markaziy Osiyo yoki MDH hududida, balki dunyoda ham yetakchilardan biri hisoblangan. Boisi, bizda radiokimyo maktabi juda yaxshi rivojlangan. Bugun ushbu maktabni yanada kuchaytirish ustida ishlar olib borilyapti. Tadqiqotlar natijalari, ya'ni biz ishlab chiqarayotgan radiofarmatsevtik mahsulotlar butun dunyoga tanilgan. Institutimiz nomini radiofarmatsevtik preparatlar ishlab chiqarish sohasidagi dunyoning eng yaxshi o'nta tashkiloti ro'yxatidan topishingiz mumkin.


– Keling, radiokimyo mavzusini davom ettirgan holda, uning tibbiyotdagi roli haqida gaplashsak. Xususan, saraton kasalligini davolash bo'yicha qanday izlanishlar olib borilyapti?

– Radiokimyo deganda radioaktiv moddalar kimyosini tushunamiz. Shu radioaktiv moddalar bilan ishlab, shulardan turli mahsulotlarni ishlab chiqarish institutimizda juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Hozirda 15 ta radioizotop asosida 60 ga yaqin radiofarmatsevtik dori vositalari ishlab chiqarilyapti. Bular asosan institutda ishlab chiqilgan texnologiyalar asosida tayyorlanmoqda. Bu dorilar turli kasalliklarni, ayniqsa, ko'proq onkologik kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Bu yerda, demak, institutda biz ham tashxis uchun, ham terapiya, ya'ni davolash uchun qo'llaniladigan shu dori vositalarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yganmiz.

– Bu ishlar shubhasiz, bemorlar ko'ngliga umid beradi. Ishlab chiqarishdan keyingi jarayon: tarqatish, yetkazish, qabul qilish va samara berish jarayoni ham kuzatib boriladimi? Xalqaro maydonda talab qanday?

– Shu mavzuda sira unuta olmaydigan bir voqea bo'lgan hayotimda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil may oyida Onkologiya markaziga tashrif buyurib, tibbiyot xodimlari bilan muloqot qildi. Menga ham so'z berildi. Davlatimiz rahbari 2018-yilda institutimizga tashrif buyurib, yangi loyihalar bilan tanishgan, o'quv binolari va laboratoriyalarni jahon standartlari asosida qurish, eng zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash zarurligini ta'kidlagandi. Topshiriqlar ijrosi va yangiliklar haqida ma'lumot berdim. Xususan, radiofarmatsevtik dori vositalarini ishlab chiqarish davom etayotgani va ularning 95-97 foizi eksport bo'layotganini aytdim. Shavkat Miromonovich mas'ullarga qarab: "Bu eksportni nima qilamiz hozir? Buyog'iga birinchi o'rinda xalqimizga yetkazib beringlar. Kerak bo'lsa, eksportdan keladigan pulni o'zimiz beramiz", dedilar. Shunda O'zbekistonda bu dori vositalaridan foydalanish uchun kerak bo'ladigan asbob-uskunalar, laboratoriyalar yetishmovchiligi borligi, kadrlar taqchilligi ma'lum qilindi. Davlat rahbari bu bo'yicha maxsus topshiriqlar berdi va bugun siz buning natijalarini ko'rib turibsiz.

Bugun klinikalarga yetkazib berayotgan dorilarimiz miqdori besh barobarga oshdi. Chunki foydalanish imkoniyati paydo bo'ldi. Zarur asbob-uskunalar keldi. Endilikda yurtimizdagi oltita klinikada mahsulotimizdan foydalanib bemorlarga tashxis qo'yilib, davolanilyapti. Bu vositalar asosan jarrohlik yo'li bilan



dori vositalarimiz keng qo'llanilyapti. Jiyanim yaqinda xuddi shu kasalga chalindi. Borib, shundan ikkita dozasi olib, hozir ancha o'zini yaxshi his qilyapti.

– Shu o'rinda savol tug'iladi: bu noyob dorilarni aholining cho'ntagi ko'taradimi?

– Juda ham o'rinni savol. Radiofarmatsevtik preparatlar bilan davolash butun dunyoda juda qimmatga tushadigan muolaja hisoblanadi. Lekin bizning mahsulotlar O'zbekiston ichida ancha arzon narxlarda yetkazib berilyapti. Aytaylik, yuqorida aytilgan suyak saratonini davolash va og'riqsizlantirishda ishlatiladigan "Samariy-153 oksabifor" dorisi Yevropa Ittifoqi davlatlari uchun bitta dozasi 2,5 ming yevro narx bilan ishlab chiqariladi, boshqa davlatlarda 2 ming 700 yevrodan sotiladi. Biz shu dorini 60 yevroning so'mdagi ekvivalentida, ya'ni 700 ming so'mdan yetkazib beryapmiz.

Hatto, chet eldagi hamkasblarimiz ham mazkur dorilarni bunday narxda sotish mumkinligiga ishonmaydi. Lekin bu fakt.

Yana bir misol, dunyo bo'yicha ishlatilayotgan va ishlab chiqarilayotgan Yod-125 radioizotopining 80 foizi Yadro fizikasi instituti qoshidagi Radiopreparat korxonasida ishlab chiqarilyapti. Bu dunyodagi eng qimmat dorilardan biri hisoblanadi. Lekin hamma shuni sotib olyapti. Nimaga? Chunki bizning mahsulotimiz tozaligi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadigan mahsulotga nisbatan 10 ming marta toza.

Xullasi kalom, mahsulotlarimizning birinchi ta'minlanuvchisi – O'zbekiston. Keyin dunyo bo'yab Avstraliyadan boshqa hamma qit'alarga yetkazib beryapmiz.

– Institut tarixini o'rganish jarayonida bir faktga duch kelindi. Ilmiy va ishlab chiqarish faoliyati davom etayotgan bir pallada jarayon to'xtatib qo'yilgan ekan...

– 2015-yil sentyabr oyida Vazirlar Mahkamasi qurari bilan institut yopiladigan bo'ldi. Bu vaqtda reaktorimiz ishlab turgan edi, reaktorning yoqilg'isi juda qimmat. Shuning uchun bir necha million dollarga sotib olingan yoqilg'i tugaguncha kutaylik, qolaversa, eksport bo'yicha uzoq muddatli javobgarligimiz bor, degan ma'noda faoliyatimizni bir yilga uzaytirib turdik. Henda institut yopiladi va ikki qismga bo'linib, bir qismi Favqulotda vaziyatlar vazirligiga, ikkinchisi – ilmiy laboratoriyalar qismi esa Milliy universitetning Fizika fakultetiga berildi... Ammo tugatish, buzish ishlari oxiriga yetmadi.

O'zbekistonda islohotlar davri boshlanib, 2016-yil dekabrda Shavkat Miromonovich olimlar bilan uchrashuv o'tkazdi. Shu yerda Yadro fizikasi instituti qayta tiklanishi to'g'risida birinchi marta aytiladi. 2017-yil fevral oyida Prezidentning maxsus farmoyishi e'lon qilindi. Mart oyidan reaktorni ishgga tushirdik.

16-yilning yozi. Institutda buza-buz avjida. Shu paytda chaqirib qolishdi, tashqariga chiqsam, bir ayol – onaizor menga yulorib, saratonga chalingan bolasiga dori izlab kelganini aytdi. Men: "Kechirasiz, reaktorimiz o'chirilgan, to'xtagan. Bu yerda binolar buzilib, remont bo'lyapti. Institutimiz yopilgan, biz ishlab chiqaza olmaymiz buni", desam, Xudoning zorini qilib yig'layapti. Chorasizlikdan inson yig'lab turganda ichingiz qon bo'lib ketadi-da. Har kuni

sarfladik. U ham nihoyasiga yetyapti. Fevral-mart oyida tugaydi. Agar yangi yoqilg'i sotib olmasak, reaktor to'xtaydi. Hozir yoqilg'i sotib olish ustida ishlayapmiz. Bu juda murakkab jarayon: hujjat ishi deysizmi, xalqaro munosabatlar-u moliyaviy ta'minot...

Endi bir vaqtlardagiday o'z holiga tashlab qo'yilgan tashkilot emasmiz. Hukumat va Fanlar akademiyasi bu borada chora-tadbirlarni ko'rmoqda. Bu yil to'rt dona yoqilg'i to'plamini sotib oldik, ular hozir yo'lida, 56 tasi esa kelasi yil fevral oyida keladi. Agar shuni oladigan bo'lsak, yana besh-olti yil reaktordan muammosiz foydalanib, tadqiqotlarni o'tkazish va shu bilan birgalikda dori vositalarini ishlab chiqarishni davom ettirishimiz mumkin bo'ladi.

– Ilhom Ismoilovich, olimning hayoti, bosib o'tgan yo'li va ko'zlagan manzillari o'quvchilarimizni befarq qoldirmaydi.

– Tashakkur! Ustozlarimizga qiyoslaganda biz ham picha ish qildik. Hali oldinda o'z yechimini kutayotgan masalalarimiz bor. Har holda yangi avloddan umidimiz bo'ladi.

O'zim haqimda aytadigan bo'lsam, 1986-yil universitetni tugatganimdan keyin mana shu institutga kelganman. Mening ish daftarchamda bittagina tashkilot nomi turibdi. Muhandis sifatida kelib, kichik ilmiy xodimdan direktorlikkacha bo'lgan vazifalarda mehnat qildim.

Qirg'yillik umrim shu dargoh bilan chambarchas bog'liq. Men uchun Institut – hamma narsa. Shaxsiy yoki oilaviy manfaatlarimdan ko'ra ko'proq institut manfaatlari muhim.

Oxirgi uch yilda radiofarmatsevtik preparatlar ishlab chiqarish yo'nalishi bo'yicha ikkita fan doktori va ikkita falsafa doktori tayyorladim. Shu yo'nalishga hozir juda katta e'tibor berilyapti. Har yili bo'lmaganda bitta-ikkita yangi dori-vositasini ishlab chiqarib, uni klinikalarga joriy qilinyapti.

Bundan tashqari, mana shu laboratoriyalarimizda ilmiy tadqiqotlar turli yo'nalishlarda olib borilyapti. Shulardan biri – materialshunoslik. Bu yo'nalishda iqtisodiyotimiz uchun zarur bo'lgan yangi materiallarni ishlab chiqarish, ularni tadqiq etish, xossalarni o'rganish bo'yicha ishlarni davom ettiramiz.

Yadro analitikasi yo'nalishi bo'yicha katta ishlar olib borilyapti. Masalan, mana, yangi qurilayotgan atom elektr stansiyasi, sobiq uran konlar hududini tadqiq etish bo'yicha minglab, o'n minglab tahlillar o'tkazildi. Bular o'sha yadro analitikasi yo'nalishi bo'yicha bajarilyapti. Hozir yangi-yangi uslublarni ishlab chiqish ustida ilmiy izlanishlar olib borilyapti. Bilasiz, ilm – atomdan kuchli!

Quvonarli jihati, davlat tomonidan tibbiyot va farmatsevtika sohasini rivojlantirishga tizimli e'tibor qaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini qo'llab-quvvatlash choralarini to'g'risida"gi Qarori muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki farmatsevtika rivoji bevosita radiofarmatsevtika taraqqiyotiga hissa qo'shadi va yangi natijalarni qo'lga kiritishni tezlashtiradi.

– Gazetimizga vaqt ajratganingiz va muhim ma'lumotlar uchun rahmat! Sog'-salomat bo'ling!

Suhbatdosh:
Zarnigor IBROHIMOVA

“BIZ DEVOR EMAS, KO‘PRIK QURYAPMIZ!”

Boshlanishi 1-sahifada.

Bu siyosatning mag‘zi-mag‘zida, avvalo, yon qo‘shnilar bilan hamkorlik, birlik, birdamlikni mustahkamlash masalasi turibdi. Markaziy Osiyoga bir taqdir deb qarash Prezidentimizning davlat rahbari sifatidagi eng asosiy g‘oyalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, bu maqola ana shu Markaziy Osiyo birligi g‘oyasining tashabbuskori tarafidan yozilgani bilan e‘tiborlidir.

Maqola diqqatni Markaziy Osiyoga jalb etadi. Unda shu paytgacha ko‘nikilmagan tarzda mintaqaning yaxlit manzarasi namoyon bo‘ladi. Umumiy statistik yakuniy raqamlar keltiriladi. Mintaqamiz aholisi 80 million kishidan oshib ketdi. Buning qariyb yarmini aynan O‘zbekistonimiz aholisi tashkil etadi. Besh davlat aholisining o‘rtacha yoshi – 29 yosh. Iqtisod nuqtayi nazaridan qaralsa, bu juda katta potentsial kuch, albatta. Ammo shunga yarasha, yosh avlodni zamonning tezkor taraqqiyotiga mos ravishda voyaga yetkazish, ularning baxtli hayot kechirishi uchun mustahkam zamin yaratish mas‘uliyati ham juda katta ekanini unutmazlik lozim.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini muntazam o‘tkazish tashabbusi O‘zbekiston yetakchisi tomonidan 2017-yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan edi. 2017-yildan buyon muntazam ravishda yiliga bir marta navbatma-navbat mamlakatlar poytaxtlarida o‘tkazib kelinayotgan Maslahat uchrashuvlari asosiy muloqot maydoniga aylandi. Xo‘sh, bundan qanday natijalarga erishildi? Maqolada bu savolga aniq-tiniq javob berilgan: **“Davlatlarning sa‘y-harakatlari bilan mintaqada yangi iqtisodiy voqelik shakllanmoqda. So‘nggi sakkiz yil davomida Markaziy Osiyo mamlakatlarining yalpi ichki mahsuloti qariyb ikki yarim barobar o‘shib, 520 milliard dollarga, tashqi savdo hajmi esa ikki karradan ziyod ko‘payib, 253 milliard dollarga yetdi. Shu bilan birga, mintaqamamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro savdo hajmi 2 marta oshib, qariyb 11 milliard dollarga, o‘zaro**

investitsiyalar esa 5,6 barobarga yetdi. Birgina mamlakatimizni oladigan bo‘lsak, O‘zbekistonning mintaqadavlatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi 2016-yildagi 2,4 milliard dollardan 2024-yilda 7,2 milliard dollarga yetdi, qo‘shma korxonalar soni esa 1800 dan oshdi”. Ayniqsa, sanoatdagi yutuqlar salmoqli bo‘ldi: **“Sanoatda Markaziy Osiyo barqaror ravishda yiliga 6 foiz atrofidagi o‘shishni namoyish etmoqda, bu jahondagi o‘rtacha o‘shish sur‘atidan ikki karra yuqori”.**

Albatta, mintaqada muammolar ham yetarli. Ularning yechimi esa jipslashish, birgalikda harakat qilishni taqozo etadi. Shuning uchun maqola muallifi mintaqadagi o‘zaro strategik hamkorlikni mustahkamlashni zarurat hisoblaydi. Keyingi 8 yilda buning samaralarini ko‘rdik. Mintaqadavlatlari o‘rtasida yillar mobaynida jiddiy muammo bo‘lib kelayotgan chegaramasalalari uzil-kesil hal etildi. Suv-energetika sohasida ham qat‘iy ijobiy o‘zgarishlarga erishdik. Bu sohadagi oqilona hamkorlik loyihalari ishlab chiqilmoqda. 2023-yili Dushanbeda o‘tkazilgan Maslahat uchrashuvida Milliy muvofiqlashtiruvchilar kengashi ta‘sis etildi. Umuman, qabul qilingan ko‘p-ko‘p hujjatlar bilan mintaqada o‘zaro hamkorlikni amalga oshirish uchun zarur bo‘ladigan huquqiy baza yaratildi va bu tobora mustahkamlanib bormoqda.

Turkmaniston Tojikiston va Qirg‘iziston bilan; Tojikiston esa Qozog‘iston va Turkmaniston bilan chegaradosh emas. O‘zbekiston esa hududiy jihatdan Markaziy Osiyoning o‘rtasidan o‘rin olgan. Amalda u mintaqaning barcha davlatlari bilan chegaradosh. Buning Markaziy Osiyo hamkorligiga erishishda alohida o‘rni va ahamiyati bor, albatta. Maqolada ta‘kidlanganidek: **“O‘zbekiston uchun mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish taktik tanlov emas, balki Markaziy Osiyo kelajagi uchun umumiy mas‘uliyatni anglashdan kelib chiqadigan ongli strategik qarordir.**

Ishonchimiz komilki, global noaniqlik davrida yaxshi qo‘shnichilik, ham-jihatlik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash – Markaziy Osiyoning asosiy resursidir. Mintaqamamlakatlari yakka holda



hal qilishi qiyin bo‘lgan umumiy xavfsizlik muammolari va rivojlanish vazifalari birgalikdagi sa‘y-harakatlar bilan muvaffaqiyatli hal qilinishi mumkin. Ishonch va sheriklikni mustahkamlash o‘z kelajagini umumiy qadrdon diyorimiz – Markaziy Osiyoning tinchligi, barqarorligi va taraqqiyoti bilan bog‘lagan millionlab odamlarning manfaatlariga javob beradi”.

Tarixdan bilamizki, aynan yon qo‘shnining hujumidan himoya qilish uchun million-million odamning mashaqqatli qo‘l mehnati bilan Buyuk Xitoy devori barpo etilgan. Alisher Navoiyning “Xamsa”siga kirgan oxirgi doston ham bejiz **“Saddi Iskandariy”,** ya‘ni **“Iskandar devori”** deb atalmagan. Iskandarday afsonaviy kuch-qudrat sohibi bo‘lgan jahongir ham xalqini **“ya‘juj”** degan maxluqlardan himoya qilish uchun ular yashaydigan hudud bilan o‘zining mamlakati o‘rtasida maxsus devor qurdirishga majbur bo‘lgan. Endi Prezidentimizning mana bu so‘zlari mag‘zini chaqaylik: **“Amaliy harakatlarimiz, kelajak uchun mas‘uliyatimiz, yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik va o‘zaro manfaat tamoyillariga sodiqligimiz shuni isbotladi: Yangi Markaziy Osiyo tinchlik, barqaror taraqqiyot va yaratuvchan sheriklik yo‘lini tanlamog‘da. Ramziy ma’noda aytganda, biz devor emas, ko‘priklar barpo etmoqdamiz”.**

O‘rni kelgani uchun ikki hayotiy misol keltiraman. 2016-yil dekabr oyi boshida Imom Termiziy hayoti va faoliyatini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjumanda ishtirok etish uchun O‘zbekistondan to‘rt mutaxassis Tojikiston poytaxti Dushanbe shahriga yo‘l oldik.

Anjumanning ertasiga shaharning

Toshkentdagi Chilonzor savdo markaziga o‘xshagan katta bozoriga bordik. Albatta, yangi kostyum-shimlar kiyilgan, galstukning ham ohori to‘kilmaganlari taqilgan, boshimizda esa qorako‘l teridan tikilgan kubanka, desangiz... Bir sotuvchi qizga tojik-chalab mehmon ekanimizni bildirib, bizga arzonroq narx aytishini so‘ragan bo‘ldik.

Kutilmaganda sal nariroqda savdo qilayotgan ayolga qarab, o‘zbekchalab qolsa, bo‘ladimi: **“Ona, bular mehmonlar ekan, arzonroq qiling, deysiz, nima deysiz?”** Biz ham darhol o‘zbekchaga o‘tib oldik-ku. Bozorning uchdan bir sotuvchisi o‘zbek ekan o‘ziyam. Birpasda bizni tojik-o‘zbek savdogarlar o‘rab olishdi-ku. **“Ko‘rinib turibdi, sizlarni O‘zbekiston davlati vaziyatini o‘rganib kelishga yuborgan. Borib, muhtaram Shavkat Mirziyoyevga aytib, chegaralarni ochsinlar. Axir, 10 kilometr nariga tushgan qizimni ko‘rish uchun Toshkentdan viza olishim, Toshkent viloyatining Oybek chegarasidan kirib, yana qaytib shuncha joyga kelishim kerak”,** dedi bir kampir.

Keyin hamma shunga o‘xshash dardi izhoriga tushib ketdi. Har qancha tushuntirmaylik, bizning ilmiy anjumanga kelganimizga ishonishmadi. **“Aytamiz, aytamiz”,** deb qutulgan bo‘ldik. Lekin ko‘p vaqt o‘tmay, ularning orzulari amalga oshdi: o‘rtadagi **“devor”**lar olib tashlanib, o‘rniga **“ko‘priklar”** qurildi. Axir, bu ikki qondosh-u jondosh xalq ayriqlik emas, birlik tarafdori-da. Asr-asrlar mobaynida shunday og‘izbirlikda yashab kelganmiz-ku.

2017-yilning noyabrda uch tadqiqotchi poyezdda Olmaotadagi ilmiy anjumanda ishtirok etish uchun yo‘l oldik. Bizga chegaradan o‘tgandan

keyin qo‘pol muomala bo‘lishi mumkinligini shipshitib qo‘yishgan edi. Aksincha bo‘ldi. Qozog‘iston ichki ishlar xodimi kupemizga kelib, mehmonligimizni bildi-da, provodnikni chaqirdi, bizga e‘tibori bo‘lishni, choy damlab berishni, nima muammo bo‘lsa, bekam-u ko‘st hal etishni topshirdi. Chunki ikki oy burun, ya‘ni 15-sentyabr kuni Toshkentda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan Qozog‘iston Respublikasining o‘sha paytdagi Prezidenti Nursulton Nazarboyev **“El-yurt hurmati”** ordeni bilan mukofotlangan edi. O‘shanda Tashqi ishlar vazirligining sobiq xodimi sifatida davlatlar o‘rtasidagi yaxshi diplomatik munosabatlar hamisha xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini mustahkamlashini ich-ichdan his qilganman.

Dunyoyugun Markaziy Osiyoni yangicha tarzda, ya‘ni rivojlanayotgan yaxlit holdagi mintaqasifatida ko‘ra boshladi. Chunki shunga harakat qilinayapti: **“Bugun biz kuchli, barqaror va farovon mintaqa – Yangi Markaziy Osiyoning mustahkam poydevorini yaratmoqdamiz. Mintaqamizda kechayotgan jarayonlar – bu ongli va ortga qaytmas tanlov. Ushbu yo‘l bizdan nafaqat birgalikdagi sa‘y-harakatlarni, balki umumiy kelajagimiz uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasizga olishga tayyor bo‘lishimizni ham talab qiladi”.**

Shu jihatdan maqolaning yana bir o‘ta muhim nuqtasini alohida qayd etish lozim. Bu – Afg‘onistonni Markaziy Osiyoning tarkibiy qismi sifatida qarash siyosati: **“Afg‘oniston bilan bog‘liq masalalarni hal etmasdan turib, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlab bo‘lmaydi. Bu mamlakat umumiy mintaqamizning bir**

chekkasida emas, balki uning tabiiy bir qismidir. Butun Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikning mustahkam bo‘lishi ko‘p jihatdan Afg‘onistonning tiklanishi va rivojlanishiga bog‘liq”. Bu qo‘shni davlatning barqaror taraqqiyot yo‘liga kirishidan Markaziy Osiyodagi qolgan besh davlat va ularning xalqi birday manfaatdor. Agar, Afg‘oniston orqali temir yo‘l bilan dengizga chiqiladigan bo‘lsa, Markaziy Osiyoning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni va mavqeyi tamoman boshqa bir daraja kasb etadi, albatta. Bundan, tabiiyki, Afg‘oniston xalqi ham bevosita bahramand bo‘ladi.

Demak, mintaqatqdiri bevosita bizning birlikdagi sa‘y-harakatlarimizga bog‘liq: **“Kuch va imkoniyatlarimizni birlashtirib, umumiy vazifalarni hal etmoqdamiz, shuningdek, xalqaro hamjamiyatga tinch va bunyodkor hamkorlikning vaqt va hayot sinovidan o‘tgan – ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashga asoslangan o‘z modelimizni taklif etmoqdamiz. Va bugun Markaziy Osiyoni keng mintaqamizda yashayotgan barcha millat va xalqlar uchun yagona tinchlik, farovonlik va taraqqiyot makoniga aylantiradigan ushbu tarixiy sur‘atni saqlab qolishimiz har qachongidan ham muhimdir”.**

Prezidentimizning bu maqolasi – Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvining Toshkentda bo‘ladigan yettinchi sammiti oldidan yozilgani bilan ahamiyatlidir. Xabaringiz bor, 15-16-noyabr kunlari shu sammit bo‘lib o‘tdi. Unda Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlash, ustuvor sohalarda qo‘shma loyihalar va tashabbuslarni amalga oshirish masalalari atroflicha muhokama etildi. Shuningdek, mintaqaviy va xalqaro siyosatning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashildi. Maslahat uchrashuvi yakunida ko‘p tomonlama hujjatlarning salmoqli to‘plami qabul qilindi.

Bugun O‘zbekiston taraqqiyotning butun dunyo davlatlari, avvalambor, yon qo‘shnilar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik yo‘lini tanlagani bejiz emas. Axir, tarix hech bir davlatning yakka-yolg‘iz holda rivojlanganini ko‘rmagan.

Zero, xalqimizning purhikmat maqolida aytilganidek: **“Yolg‘iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong‘i chiqmas”.** Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvining Toshkentda o‘tgan yettinchi sammiti o‘zaro do‘stlik va hamjihatlikni yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qildi, deb aytishga to‘la asoslarimiz bor.

Sultonmurod OLIM

JAHON AYVONIDA

2025-YIL SO‘ZI

Ingliz tili bo‘yicha Kembrij lug‘ati (Cambridge Dictionary) 2025-yilning eng faol so‘zi o‘laroq Parasocial (“Parasotsial”)ni tanladi. Bu haqda lug‘at saytida ma‘lum qilindi.



Parasotsial – odamlarning mashhur shaxs, kitob (film, serial va hokazo) qahramoni yoki sun‘iy intellekt (chatbot) bilan his etadigan bir tomonlama hissiy bog‘lanishni ifodalovchi atama. Bu atama shaxsning o‘zi bilmagan obyektga nisbatan emotsional aloqa o‘rnatishini anglatadi.

QO‘SHIMCHA HARBIYLAR

Polsha hukumati aeroportlar va aloqa liniyalari kabi muhim infratuzilma obyektlarini himoya qilish uchun 10 minggacha askar jalb qiladi. Bu haqda Mudofaa vaziri Vladislav Kosinyak-



Kamish va Ichki ishlar vaziri Marsin Kervinski ma‘lum qildi.

Mudofaa vazirining tushuntirishicha, harbiylar qo‘poruvchiliklarga qarshi kurashish uchun politsiya, temir yo‘l qo‘riqchilari va barcha davlat xizmatlari bilan harakatlarni muvofiqlashtiradi. Polsha fuqarolarining xavfsizligini ta‘minlash maqsadida barcha vazirlik va idoralardagi mavjud resurslar to‘liq safarbar etiladi.

XUSUSIY PLYAJLAR TAQIQLANADI

Indoneziyaning mashhur turistik oroli Balida xususiy plyajlar taqiqlanishi kutilmoqda. Hukumat orol hududidagi barcha plyajlarning aholi uchun ochiq bo‘lishini ta‘minlashga qaratilgan qonun

loyihasini muhokamaga kiritdi. Bu haqda “The Independent” xabar berdi.



So‘nggi paytlarda orolda tijoriy qurilishlar ko‘payishi tufayli mahalliy aholining plyajlarga kirishi tobora qiyinlashmoqda. Plyajlar baliiklar uchun muhim diniy marosimlar o‘tkaziladigan joylar bo‘lgani sababli ruhoniyolar o‘rtasida jiddiy tashvish uyg‘otmoqda.

VIRUS AVJ OLDI

Qozog‘istonda o‘tgan haftada 183 ming kishi virusli infeksiya (ORVI) bilan kasallandi. Bu haqda mamlakat Sog‘liqni saqlash vaziri Oqmaral Alnazarova 19-noyabr kuni bo‘lib o‘tgan hukumat yig‘ilishida so‘z ochdi.

Unga ko‘ra, shu haftadagi kasallanish darajasi avvalgi epidemiya mavsumidagi ko‘rsatkichga nisbatan 16 foizga oshgan.

1-sentyabrdan beri Qozog‘istonda 1,4 million o‘tkir respirator virusli infeksiya



holatlari qayd etilgan. Ushbu holatlarning 66 foizini 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar tashkil etadi.

KOSMIK XAVFSIZLIK STRATEGIYASI



Germaniya mudofaa va tashqi ishlar vazirlari mamlakatning ilk

kosmik xavfsizlik strategiyasini taqdim etdi.

U, avvalo, sun‘iy yo‘ldoshlar va ular bilan bog‘liq infratuzilmani himoya qilish masalalarini qamrab oladi.

ERDO‘G‘ANDAN TAKLIF



Ukraina va Turkiya prezidentlari Anqarada mojaroni tinch yo‘l bilan hal etishning ehtimoliy yo‘llarini muhokama qildi.

Erdo‘gan Rossiya bilan variantlarni muhokama qilishga tayyorligini, shuningdek, AQSHning rolini yuqori baholashini aytdi.



MASLAHATLI TO‘Y TARQAMAS

Boshlanishi 1-sahifada.

Ikkinchidan, uchrashuv nafaqat Markaziy Osiyo, balki xalqaro maydonda katta aks sado berib, boshqa davlatlar va mintaqalar uchun hamkorlik, hamjihatlik, muloqot hamda o‘zaro siyosiy ishonch nuqtayi nazaridan namunaga aylanayapti. Uchinchidan, Ozarbayjon Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvida to‘la huquqli a‘zo sifatida ishtirok etishi to‘g‘risidagi qaror qabul qilinishi 2023-yildan mehmon sifatida qatnashayotgan qardoshlarimiz nafaqat formatning geografiyasini Markaziy Osiyoni Janubiy Kavkaz bilan bog‘lab kengaytiradi, balki mintaqaning subyektligini ham kuchaytiradi. Bu bilan Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz yagona geosiyosiy va geoiqtisodiy makonga aylandi. Agar bu bog‘liqlik yana kuchaytirilsa, bu ikki mintaqada tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga, xalqlarning farovonligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Zero, o‘rtamizda tarixiy madaniy va ma‘naviy azaqlar mavjud. Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan Ozarbayjonga Maslahat uchrashuvlarida to‘laqonli ishtirokchi maqomini berilgani tarixiy munosabatlarni siyosiy formatga aylantirishni anglatadi. Albatta, Toshkentda bu borada oxirgi konsensusga erishildi.

Endilikda Ozarbayjon Markaziy Osiyo integratsiyasining shunchaki sherigi emas, balki turkiy birlashuvni ham o‘z ichiga olgan mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik jarayonlarida faol ishtirok etayotgan davlatdir. Boshqacha aytganda, bugun Boku Sharq va G‘arb o‘rtasida ko‘priq vazifasini o‘tab, mintaqamizni organik ravishda to‘ldirmoqdaki, bu ayniqsa, Turkiy davlatlar tashkiloti faoliyatida ochiq ko‘rinadi. Iqtisodiy tez rivojlanayotgan O‘zbekiston tovarlar harakatini maksimal darajada yengillashtirishdan manfaatdor. Ozarbayjon tomonidan ilgari surilayotgan keng transport imkoniyatlari Markaziy Osiyo uchun butunlay yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ochadi. Ana shunday pragmatik manfaatlar mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkam va samarali qiladi. Ozarbayjon – bir tomondan Janubiy Kavkazda, boshqa tomondan Markaziy Osiyoga yaqin joylashgan, Kaspiy havzasiga kiradigan davlat. Bularning barchasi Prezident Ilhom Aliyev tomonidan belgilab berilgan Ozarbayjon tashqi siyosatining yangi konsepsiyasiga asoslangan faol siyosat olib borish uchun zamin yaratadi. Shuning uchun mazkur format Ozarbayjon bilan Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida strategik sheriklik, ittifoqchilik asosida munosabatlarni yanada chuqurlashtirishga, iqtisodiy, savdo, madaniy, gumanitar, transport-logistika aloqalarini kengaytirishga katta imkoniyat va istiqbol qopqasini ochadi.

Bugungi kunda Ozarbayjon va Markaziy Osiyo Sharq-u G‘arb, Shimol-u Janub o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in, ko‘priki hisoblanadi. O‘rta koridorini rivojlantirish mamlakatlarimiz uchun strategik ahamiyatga ega. Transport va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, bojxona jarayonlarini sinxronlashtirish va raqamlashtirish bo‘yicha birgalikdagi sa‘y-harakatlar yuk tashish hajmini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va xalqaro bozorlarda o‘zaro hamkorlikni kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. So‘nggi uch yil ichida Ozarbayjon orqali O‘rta koridor bo‘yab yuk tashish hajmi 90 foizga oshib, o‘tish vaqti sezilarli darajada qisqardi. Yiliga 25 million tonna yuk o‘tkazish quvvatiga ega Alyat xalqaro porti, Boku-Tbilisi-Kars temir yo‘li, 9 ta xalqaro aeroporti, mintaqadagi eng yirik yuk tashish aviakompaniyasi va boshqa omillar Ozarbayjonni xalqaro transport tugunlaridan biriga aylantirdi.

Ozarbayjon hududida qurilishi yakunlanayotgan Zangezur koridori boshlang‘ich bosqichda 15 million tonna yuk o‘tkazish quvvatiga ega bo‘lib, O‘rta koridorning muhim arteriyasiga aylanadi. Shuningdek, Zangezur koridorining bir qismi bo‘ladigan avtomagistral qurilishi bitay deb qoldi.

“Raqamli Ipak Yo‘li” loyihasi Kaspiy dengizi tubi bo‘yab optik tolali kabel tarmog‘ini yaratish rejalarini o‘z ichiga oladi. Mazkur loyiha xalqaro bozorga elektr energiyasini birgalikda eksport qilish uchun katta istiqbollarni ochmoqda. Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz imkoniyatlari birlashtirilayotganini uchinchi bir davlatlarga qarshi qaratilmaganligini ham ta‘kidlash o‘rinli. Boz ustiga, Pekin, Vashington va Moskva kabi har bir hamkor mintaqaning iqtisodiy va tranzit salohiyatini rivojlantirishga aniq pragmatik qiziqish bildiriyapti. Barcha yo‘llar Rimga olib boradi, degan mashhur maqolni bugun “Barcha asosiy quruqlik yo‘llari Markaziy Osiyo bilan tutashadi” qabilida ifodalasak, to‘g‘riroq bo‘lardi.

To‘rtinchidan, davlat rahbarlarining nutqlarida bir-biriga yaqin mavzular, taklif va tashabbuslar ko‘tarildi. Bu mintaq davlatlarining xalqaro maydonda yakdillikka, uning chinakam subyektligiga aylanib borayotganini, ovozi balandroq jaranglayotganini namoyish etdi. Beshinchidan, sammitda Afg‘oniston omili va umumiy global notinchlik hisobga olingan holda xavfsizlik masalalari muhokama qilindi. Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik, barqarorlik va izchil rivojlanish konsepsiyasi va ularga xurujlarning oldini olish bo‘yicha xavflar katalogi imzolandi. Suv xavfsizligi va ekologik barqarorlik, transport aloqasi, sanoat va qishloq xo‘jaligi hamkorligi mintaqaviy siyosatning asosiga aylanmoqda. Bu esa mintaqadagi vaziyat 15–20 yil avvalgidan juda farq qilishini namoyish etadi. O‘zbekiston Prezidenti maslahat uchrashuvi arafasida ta‘kidlaganidek, ko‘p yillardan beri birinchi marta mintaqamizda ishonch, yaxshi ko‘shnichilik va o‘zaro hurmat muhiti shakllanmoqda. Ko‘pchilik mintaqaviy muammolar, suv taqsimoti yoki chegara nizolariga oid kelishmovchiliklar uzoq muddatli munosabatlarni buzadi, deb hisoblardi. Biroq barcha salbiy prognozlariga qaramay, mintaq yaqindillik sari dadil odimlayapti. Tojikiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi davlat chegarasi, shuningdek, Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekiston chegaralarining tutashgan nuqtasi bo‘yicha kelishuvlar tuzilishi, shuningdek, Tojikistonning XXI asrda Markaziy Osiyoni rivojlantirish bo‘yicha “Do‘stlik, yaxshi ko‘shnichilik va hamkorlik” shartnomasiga qo‘shilishi mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi yakunlari bo‘yicha Qo‘shma bayonot qabul qilindi. Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik konsepsiyasi, Markaziy Osiyo xavfsizligiga xatarlarning katalogi va ularning oldini olish bo‘yicha 2026–2028-yillarga mo‘ljallangan choralar kabi hujjatlar imzolandi. Bu mintaq davlatlarining umumiy manfaatlari va yagona pozitsiyasini aks ettiradi. Qo‘shma bayonot esa xalqaro hamjamiyatga Markaziy Osiyo davlatlarining birlashgan va muvofiqlashtirilgan yondashuvga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Imzolangan hujjatlar shunchaki deklarativ emas, balki aniq amaliy chora-tadbirlar va muddatlarni belgilaydi hamda qarorlarning qog‘ozda qolib ketmasligini, aksincha, hayotga tatbiq etilishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Bugungi shiddatli jarayonlar Markaziy Osiyo Sharq va G‘arb manfaatlari kesishmasidagi chorrahaga aylanib borayotganini namoyish etdi. Bu mintaq mamlakatlari uchun tarixiy imkoniyatdir. E‘tibor bergan bo‘lsangiz, Toshkent muzokaralari Markaziy Osiyoga global e‘tiborning ortib borayotgani fonida o‘tkazildi.

Biz keyingi davrda C5+1 formatida birin-ketin ko‘plab amaliy tadbirlarni ko‘ryapmiz. Yevropa Ittifoqi, Xitoy, AQSH va Rossiya Markaziy Osiyoga sezilarli e‘tibor qaratishni boshlagani aniq. Mintaq ichidagi munosabatlar ham jadal rivojlanyapti. Xalqaro bozorlarga chiqish uchun qo‘shma infratuzilma yaratilyapti. Qosim-Jo‘mart To‘qayevning O‘zbekistonga davlat tashrfi davomida boshlangan muhim loyihalardan biri – “Markaziy Osiyo Xalqaro sanoat hamkorligi markazi” shular jumlasidan. U Qozog‘iston va Xitoy o‘rtasidagi shunga o‘xshash transchegaraviy hamkorlik markaziga, Xorgosdagi Xalqaro savdo hamkorligi markaziga juda o‘xshaydi. Ammo yangi markaz ko‘plab qiziqarli ishlarni: sanoat korxonalari, yashil yo‘lak, bojxona to‘siqlarini olib tashlash, aviatsiya markazini yaratish va boshqa ko‘p sohalariga asoslangan. Ko‘rib turganimizdek, Markaziy Osiyo uchun umumiy siyosiy, iqtisodiy va madaniy makon shakllanayotgan bir paytda tarix ko‘z o‘ngimizda yaratilmoqda.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, geosiyosiy beqarorlik sharoitida Markaziy Osiyo davlatlarining yagona tashqi siyosiy yondashuvlarini ishlab chiqishi mintaqaning xalqaro maydondagi pozitsiyasini mustahkamlaydi, umumiy manfaatlarni himoya qiladi va turli global kuch markazlari bilan pragmatik aloqalar o‘rnatishga yordam beradi. “Markaziy Osiyo plus” formatlari ham shunga qaratilgan. Sammitda qabul qilingan hujjatlar esa Markaziy Osiyo davlatlarining chuqurroq integratsiya, samarali hamkorlik va mintaqaviy xavfsizlik hamda barqarorlikni ta‘minlashga bo‘lgan jiddiy intilishlarini aks ettiradi.

Bu mintaqaning kelajakdagi taraqqiyoti va xalqaro maydondagi roli uchun muhim poydevor demakdir.

Jamoliddin BADALOV

ABADIYAT ORALAB...

“TILAK, TILAGIM...”

FALSAFA BILAN SHE‘RIYAT BAHSI

Tilakjon yetmishinchi yillarning o‘rtalarida aspiranturaga kirdi. Bu salohiyatli yigitning siymosida bir-biriga zid ikki oqim duchlashganday bo‘ldi: shoirona hurfiylik bilan mirzaquruq olimlik aqidaparastligi. Qanchalik tirishmaylik, majnunvash shoirga olimlikning sino fikrlash yo‘rig‘ini yuqtira olmadik. U shoir esa, qanday tafakkur qilsa, darslarda domla, ma‘ruzachi maqomida ham shunday edi...

Necha martalab miyasiga quyganmiz: “Hoy Tilakiy, unutm: olimlikning ma‘nisi shuki, bir narsani o‘ylasang ham, boshqa narsani so‘yla, baraka topkur. Ilmiy tafakkur qil. Shoirligni unut. Sen Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon, Usmon Nosirga sajda qilasan. Adabiyotning firqaviyligi yolg‘on, deysan. Hatto proletar internatsionalizmiga shubha bildirib, milliylikni ko‘klarga ko‘taribsan. Dil, shakkokliging seni bir kuni xarob qiladi, “yetib boradi”... tilingdan osib qo‘ymasinarlag tag‘in”.

Qayoqda! Gap kor qilmaydi. Talabalar orasiga kirdimi – bulbuligo‘yo bo‘lib ketadi... Yashavor! Kim yaxshi – Tilak Jo‘ra yaxshi. Yoshlar quruq “risolabop” gaplarni eshitaverib, ensasi qotgan. Hur fikrga, rost gapga tashna. Ular guruhruruhr bo‘lib talab qilishadi: “Falonpismadon domlalardan rosa zerikdik. Professor bo‘lishsa o‘zigal!” Aytishga oson. Har kuni har bitta darsxonaga bittadan Tilak Jo‘ra yoki Najmiddin Komilni qayoqdan topaman...

Alqissa, talaba ahlining bunday mehribonchiligi, Tilakvoyning shoirona jo‘mardligi barimizga qimmatga tushdi. Najmiddin domla ham talabalarga xuyaki bir chekkadan arab yozuvini o‘rgata boshlagan. Tasavvufdan ma‘ruzalar o‘qigan. Aksiga olib, omadni qarangi, har uchalamiz – men, mulla Najmiddin bilan shoir Tilak firqasiz bo‘lib chiqdik. Partiya faollari bizga qizil “tavqi la‘na”ni yopishtirdi: “Tarjima kafedrasida siyosiy-tarbiyaviy ishlar chatoq. Bu yerda firqaviy ruh yo‘q”.

Eh, Tilak Jo‘ra, aytmovdimmi!..

BIROZ ORTGA QAYTIB...

O‘t bilan suv o‘rtasida qiynalaman. Hali Tilakning ToshDU ilmiy kengashida yuz foiz ovoz bilan yoqlangan nomzodlik tadqiqoti, oradan bir yil o‘tibdi hamki, anov yoqda tasdiqlanmagan. Bir yil-a! Men o‘zimni garovga qo‘yib, o‘sha yoqda VAKKa qarshi rasman qat‘iq norozilik bildirganimni hech kim bilmaydi. Ichim to‘la dard, ammo soqovman. Ahvol tobora jiddiylashib borardi. Kun sayin, soat sayin...

Bir kuni rahmatlik xonaga o‘qday otilib kirdi-yu, ishdan ketish haqida uchinchi, so‘nggi arizani oldimga itqitdi. Shunday halim, mo‘min-qobil odam isyon ko‘tarayotgan edi. Ammo kimga, nimaga qarshi norozilik bu? Koshki bilsa: aynan uni va “u bo‘lmagan” o‘nlab vallomat jabrdiydalarni deb bu yoqda tutab yotibman-u... Umringizda shunday o‘sal holatlarga tushib ko‘rganmisiz, aziz mushariy? Nima qilish kerak? Har qanday battol yoki telbaga bir amallab gap uqtirsa bo‘lar, balki. Ayting-ayting, mo‘min-musulmon odam to‘nini teskari klyamasin ekan...

– Tilakjon, shoirim, yana ozgina sabr kerak. Mana, ko‘rasiz...

– Men sabr qilib bo‘ldim, to‘ydim, ol ishingni! – dedi u battar jazavasi qaynab. Umrida birinchi marotaba meni sensiradi. O‘zi ikki kubilib, qo‘li bilan ko‘kragini changallab turardi.

– Qishloqqa, mushtipar keksa onamning yoniga ketaman. U yolg‘iz, betob.

– Xo‘p. Borib keling. Ammo ishdan bo‘shamay turing. Iltimos. Mana, meni aytdi dersiz. Hammasi yaxshi bo‘ladi.

– “Men na deyma-u, qo‘bizim na deydi!” Butunlay ketaman bu yoqlardan... – Sabr! – deyishimni bilaman, u portlab ketdi:

– He, o‘sha!..

A?! Bunday haqoratni umrimda birinchi marotaba eshitib turardim. Yana, kimdan! Bu so‘zlarni eshitguncha quloqlarim tom bitsa bo‘lmasmidi?! Hozir bo‘lganlarni ham barq urganday bo‘ldi. U nima qilib qo‘ygani oxirigacha anglab yetmay, xonadan otilib chiqdi... Orqasidan qaqshab-titrab qichqirdim: – Ushlanglar uni! Orqasiga qaytaring...



Qayoqda! O‘sha zahoti ko‘zdan g‘oyib bo‘lgan edi. Kafedra jamoasi yakdil bo‘lib qaror chiqazdi: bo‘shatilsin!

MALOMAT

Tilakvoy o‘sha kuniyoq ona yurtiga – Buxoro viloyatining Sayyot qishlog‘iga jo‘nab ketibdi... Saboqni kuttirib bo‘lmaydi. Domlalarga ilk dafa yalinib-yolvora boshladim:

– Hoy falonchi, Siz Tilakning darsini o‘tib turing. Mulla Najmiddin, o‘zlari ham... Yana kim bor?..

Shu zayl yarim yilgacha amallagan bo‘ldik. Hamma obdon charchadi. Asablar taranglashdi.

– Domla, shu odamning bahridan o‘ting. Shundan bo‘lak Sancho Pansa qurib ketganmi! – deya aql o‘rgata boshladi birovi. – Don Kixot (menga ishora) omon bo‘lsa, Sancho-mancholar topilaveradi. Keling, o‘zingizni ham, bizni ham qiynamang.

– Nega endi... Hoy baraka topkurlar, tushunsanglar-chi...

– O‘zingiz tushuning, – dedi boshqa birovi. – U sizday odamni so‘kdi-ya! Shundaymi?

– Xo‘sh?

– Nimasi “xo‘sh”?! Bu ko‘rmamakka ustoz va ilmiy rahbarsiz. Bilsa, ota o‘rnidasiz, axir.

– To‘g‘ri... – biroz tinchitdim ahli jamoani. – Mulohazalar juda jo‘yali. Hukm qat‘iy va adolatli. Bir narsa deyolmayman. Biroq hozir u qilgan ishiga pushaymon bo‘lib, ich-ichidan ezilib yurmaganiga kim kafolat bera oladi? Mana siz, xonim-oyim, Ollohgacha shukrlar qilingkim, mujovirsiz. Musofir, muhtoj bo‘lib ko‘rmangansiz. Kambag‘al, xasta bir inson uchun bu qanday “ne‘mat” ekanini tasavvur qilolmaysiz. Siz o‘z yorug‘ uyigizda, vataningizda, xesh-aqrabolar orasida, o‘z halovatingizda o‘tiribsiz. A, u bo‘lsa... Ichini it timalayapti. Agar siz yoki istagan birimiz mana shu shoimning o‘rnida bo‘lsak, ajabmas, allaqachon esdan og‘ib, boshimizdan tuproq sochib o‘tiramidik!.. To‘mtog‘lik, xudbinlik, burnidan narini ko‘rolmaslik yomon narsa. Siz-u bizga o‘xshagan o‘nta dastorlik muqobil-mudarris ham mana shu bitta “telba” Tilak Jo‘raning o‘rnini bosolmaymiz. Gapimga ishonmasangiz, yurak yutib, uning studentlaridan so‘rang. Kishi kechirimli, bardoshli bo‘lishi kerak. O‘z odamimiz! Qisqasi, gap shu: avval men ketaman bu dargohdan, so‘ng – u... Men bor ekanman – u bo‘ladi.

Chuqur xo‘rsindim. Ko‘zimda yosh halqob bo‘ldi. Sekin oynagim ustidan qarasam, hamma xomush tortib, ko‘zi millitlab turibdi. Bu rizolik alomati edi. Sezdim: insoniy mehr-oqibat sovuq mantiqni yengdi.

“Daryoga talpangan tuyaday, Talpindim so‘zlaring bag‘riga. Ular ko‘p olisda qoyaday, Qo‘llarim yetmaydi bariga. Tut undan toliqqan tanamda Sadosiz so‘zlaring zardobi. Ilonday chirmashar bo‘ynimga Besamar kunlarning girdobi.”

“KIMNIKI, HEY BU QIZIL GULLAR?”

...Hamon shoirdan darak yo‘q. Biz tomonga uzoq Qorako‘ldan har xil mish-mishlar kela boshladi. Birov ko‘ribdi: Tilak ko‘l boshida baliq ovlab o‘tirgan ekan. Yana kimdir aytganmish: allaqanday sankt-peterburglik qadimshunos olim Poykent arxeologik qazilmasiga shoimni qorovullik vazifasiga taklif qilibdi. U o‘sha Poykent qabristonida bir necha ming yillar ilgari yashagan ibtidoiy jamoa haqida tarixiy roman yozarkan. O‘-ho! Bunday favqulotda antiqa xayollarga

berilish uchun shoir Tilak Qorako‘li bo‘lish kerak.

Nihoyat, bir kuni undan o‘z taqdiridan shikoyat, ruhiy tushkunlik og‘ushida afsus-nadomatlar ila yozilgan maktub oldim. Xatning adog‘ida uyida bir chakra uni ham yo‘qligini eslatibdi. Shu bois, minbargoh bekasi Obida orqali o‘zining o‘n besh kunlik maoshini birotadan berib yuborishimizni iltijo qilibdi (hali biz uni xizmatidan bo‘shatmay, ushlab turganimizni bilmaydi).

Tezda javob xati yozib yubordim. Qisqacha mazmuni shunday:

“Tilakjon, bilaman, bu “rivojlangan sotsializm davrida” Sizga qiyin bo‘ldi. Juda. Lekin kimga oson? Sho‘riik Zuhriddinning oyday xotini avtomobil falokatidan halok bo‘ldi. Sa’dulla Ahmadga osonmi? Besh ming so‘m yelkasida qarzi turibdi. O‘ylaysizki. Pushkinga oson bo‘lgan? O‘limi oldidan naq ellik ming so‘lkavoy qarzi bor ekan. Har xil qalang‘i-qasang‘ilardan.

Mulla Tilakiy Qorako‘liy. “Sayotxon bog‘dadir, bog‘da” deb xirgoyi qilib, Sayyotda ko‘p yuravermang. Aytib qo‘yay: qirg‘ yosh – qaltis yosh. Qaltis! Hozirgacha yoshlik havasi va havosi bilan ancha-muncha maroqli, tiniq narsalar yozdingiz. Endi to‘qqiz to‘lg‘oq tutmasin, bo‘tam. Qop-qora ko‘mir otashgohda yonib bo‘lgach, qip-qizil cho‘g‘ bo‘lib yashnaydi. Atrofga issiqlik va nur bera boshlaydi... Endi bu yog‘iga donishmand, so‘fiy bo‘lib qalam tebratasiz, chirog‘im. Har bir mavsumning o‘z gashti bo‘ladi. Diltang bo‘lavermang. Qanchalik ta‘mirlamang, bu noraso dunyoning qaddini rostlayolmaysiz. Biz musulmoniyaga Tangri Taolo shukronalik tuyg‘usini ham ota etgan. Kufr qilmay desangiz, shukr qiling.

Qarang: atrofingiz to‘la odam. Tumonat. Bari do‘stlar, yor-birodarlar, ustoz-u shogirdlar. Iye, bundan ziyod baxt bormi dunyoda! “Mavloni Tilak domlamiz o‘rniga qaytarilsin!” deb oq yalov ko‘tarib yurishibdi shogirdlaringiz, do‘stlaringiz Toshkandday shahri azimda. Ayniqsa, Najmiddin Komil akangiz bilan Ma‘rifat Shoinoiyatova opangiz dod solib yuborishdi, bu hazrati odamsiz kafedra huvillab qoldi, deiyishib. Siz bo‘lsa, yolg‘izman, deya yig‘laysiz, bekor gap. Yana nima kerak Sizga? Olloh – Vohid. U yolg‘iz. Hech kimi yo‘q. Na ota-on, na zurriyot, na qavm-u qarindosh... Illo, Vohidlik – faqat Olloh Taolo va taborakka yarashadi. Inson hech qachon unutilgan, tashladiki, keraksiz, tanho deb his etmasligi lozim o‘zini. Chunki uning Xudosi bor. Tangri o‘zining hech bir bandasini unutmaydi, tashlab qo‘ymaydi. Biz Olloh bilan birga ekanmiz, Olloh hamma vaqt bil bilan birga. Bunday olganda, Siz bilan men, to‘g‘ri, ota-onadan yolg‘iz o‘g‘ilmiz. Yolg‘iz va yolg‘iz emasmiz. Zero, ikkalimiz birgalikda ikki kishimiz, bas, yolg‘iz emasmiz. Tag‘in: ikkovimiz ham Ollohning panohidamiz. Qanday qilib yolg‘iz bo‘laylik!

Sizing oramizdan ketib qolganingizga men ishonganim yo‘q. Ko‘nikolmasam kerak. Meni kimlarga tashlab ketyapsiz, inim? O‘ylab ko‘rdingizmi? Fan kandi-datsiz-a? Hazil gapmi! Kamxarj bo‘lib qolibsiz. Hechqisi yo‘q. Kelib hamma maoshlaringizni oling. Hech kim Sizni bo‘shatib yuborgan emas. Barcha kafedradoshlar, hamkasb do‘stlarga qulluq qiling. O‘shalar borekan, o‘rningizni bildirishmadi. Amallashdi. Kun keladiki, hammamiz ham o‘sha boradigan “katta qishlog‘imiz”ga ketamiz. Ammo hozir ayni yashaydigan, to‘lib-toshib ijod qiladigan, yonadigan, qaynaydigan, kurashadigan va yaratadigan davrimiz. Manzilga endi yetdik, deganda, ortga burilib kedingiz. Xafa bo‘lmang: qo‘rqoqlik va nomardlik bu. Ko‘nglingizga olmag. Ortga qayting. Shunday qaytingki, hech kim bilmasin. Axir, Tilak Jo‘rasiz qanday dorul-tarjima bo‘lsin?! Men nima degan odam bo‘laman, og‘ayni?! Kampirni bir amallab ko‘ndiramiz. Endi bo‘ldi. Sal bo‘lmasa yig‘lab yuboraman. O‘zingni mahkam ushla, shoir inim!”

“Uzoq yillar, ko‘p uzoq yillar, Aldab keldim o‘zimni o‘zim. Meniki, deb bu qizil gullar, Meniki, deb har aytgan so‘zim.

To‘g‘ri, gullar meniki erur, Menikidir har aytgan so‘zim. Nima qilay axir ularni, O‘zimniki bo‘lmasam o‘zim?”

G‘aybullasiz-SALOM

1997-yil

KITOBLAR OLAMI

Kitob deb atalmish beqiyos xazina insoniyatning buyuk ixtirolidan biri sifatida eʼtirof etilgan. Uning qudratini ramziy maʼnoda quyosh taftiga qiyoslash mumkin. Shunda ham, inson qalbini yoritish faqat kitobning qoʻlidan keladi, xolos. Shunday kitoblar borki, ular seni ohanraboday oʻziga tortadi, umring yoʻllarida beminnat hamrohingga aylanadi, qayta-qayta oʻqiyсан, oʻqiganing sari aql-shuuring toʻlishib boradi va bu jarayon hech qachon nihoyasiga yetmaydi.



“Oʻtkan kunlar”ni birinchi marta oʻsmirimgimda oʻqiganman, endi esa ichki bir ehtiyoj bilan bu asarga yana va yana murojaat qilaman. Asar qahramonlari – Otabek, Kumush, Zaynab bundan oltmish yil avval mening tasavvurimda jonlangan qahramonlardagi jiddiy farq qiladi. Oʻquvchi bilan birga ular ham ulgʻayib borayotganday... Shunday ekan, yaxshi kitoblarni bir marta oʻqish bilan kifoyalanish kerak emas. Uning moʻjizaligi shundaki, har gal oʻqiganingda u senga maʼno xazinasining yangi-yangi qatrlarini ochaveradi.

Dunyo tamadduni rivojiga beadoq hissa qoʻshgan ulugʻ ajdodlarimiz olamshumul yutuqlarga kitoblar bois erishgan. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulugʻbek, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Fargʻoniy, Abu Ali ibn Sino kabi allomalar yoshlikdan mutolaaga oshno boʻlgan, ilm olish uchun issiq uylarini tashlab, olislarga safar qilgan. Mashhur kutubxonalardagi maʼnaviy xazinadan bahramand boʻlishni orzu qilishgan.

Adab ilmiga doir koʻplab asarlar muallifi sifatida nom qozongan Ibn an-Nadimning xotiralarida Maʼmun bir urushda Rim podshohini magʻlub etgach, oʻzaro sulhga koʻra, undan oʻlpon oʻrniga bagʻdodlik olimlarga xazinasidagi nodir kitoblarni tarjima qilish uchun ruxsat berishini talab qilgan ekan. Naqadar gʻaroyib talab. Oʻtmish-tarixda bunday misollar oz emas.

Mahmud Asad Joʻshonning “Tasavvuf va goʻzallik” kitobini (Mirzo Kenjabek tabdili) qayta-qayta varaqlayman: “Bemaʼnilikni, bemaʼni ishlarni, behuda soʻzlarni tark etmogʻimiz lozim. Kiyim ham shunga oʻxshash. Odamlar oʻzlarini iskanjaga solganlar. Shunday paypoqlar kiyamizki, oyogʻimizni bogʻib goʻyadi, qon aylanmaydi... Inson (yangi uyiga) Italiyadan marmar keltirib, ovropoviy pech quradi. Nima ishga yaraydi bu? Behuda, hech ishga yaramaydi. Ichiga biror narsa solinmaydi,

yonmaydi, yonsa ham isitmaydi. Ustida ovqat pishmaydi. Oddiy narsalarga juda katta sarf-xarajatlar qiladi. Avstraliyada qurilgan imoratlarni kuzataman. Bu – italiyalik kishining uyi. Uning yonidagi binoda ishchimiz yashaydi. Italiyalikning tomorqasi goʻzal, batartib, sarishta. Bizniki esa xarob. Chunki bu inson uyiga ham, bogʻiga ham qaramaydi, oʻzini urintirmaydi, fabrikaga borib, mardikordek ishlaydi, boshqalardek ishdan keyin biror foydali ish bilan mashgʻul boʻlmaydi. Ovrupe bizning urf-odatlarimizni, ashyolarimizni sinchiklab oʻrganadi, foyda-lisini tanlab oladi. Masalan, ular qatiq isteʼmolini, don yanchish (tegrimon) ishini, cholvorni, nimcha-kamzulni, yungli libosni, suzish libosini bizdan olgan. Demakki, oʻz tamoyilimiz, oʻz qoidamizga muvofiq boʻlgan narsalarni, agar qanoatlantirsa, ishtontirsa, boshqalar ham olishi mumkin”. Allomaning ushbu fikrlarini oʻqir ekanman, bir tadbirkor yigitning: “Uch qavat uy qurdim, qirtqacha xonasi bor, ammo ularning koʻpiga bir yilda bir marta kirsam kiranman, kirasam – yoʻq”, degan soʻzlari yodimga tushadi.

Har bir davrning oʻz mafkurasi, maqsad-muddaosi boʻlganidek, shu davrning hosilasi boʻlmish oʻquvchisi ham boʻladi. Davrlar oʻzgaradi, ammo chin kitoblar zamiridagi rostgoʻy ifoda oʻz taʼsirini hech qachon yoʻqotmaydi, qalb amri, imon siyohi bilan yozilgan bitiklar asrlarni ortda qoldirib, yashashda, ilm-maʼrifat tarqatishda davom etadi.

Ulugʻ ustozlardan ilmning ibodatga qiyoslanishi mazmunidagi hikmatni eshitganimda, kitob oʻqishga qiziqishim yanada kuchaygan. Oʻquvchilik yillarim bir kitobchani qidirib, qoʻshni ikki-uchta qishloqqa borganim, uyga qaytishda qorboʻronda qolib ketganimni eslayman. Bir ustozning: “Kitoblardagi muhim fikrlar, voqea-hodisalarning qisqacha bayoni, oʻzing uchun yangi soʻz va iboralar,

maqol va matallar, noyob aytimlarni yon daftaringga yozib qoʻyganing maʼqul”, degan gapi hamon yodimda. Uzoq yillar davomida bu odat men uchun qatʼiy qoidaga aylandi. Bundan oʻn-oʻn besh yil avval oʻqigan kitobim haqidagi qisqa yozuvlarimni varaqlar ekanman, uning asosiy mazmuni, xulosasi xotiramda jonlanadi. Yozgan maqolalarimda ulardan foydalanaman. Jaloliddin Rumiyning “Ichindagi ichindadir”, Radiy Fishning “Uyqudagilar uygʻonajak”, Soʻnggi yillarda avval oʻqimagan, ammo oʻqishim zarur boʻlgan koʻplab kitoblarni oʻqidim. Ularni kimdagi imtihon toshpshir, baho olish uchun emas, oʻzing uchun, maʼnaviy ehtiyojningni qondirish uchun oʻqi, kitoblar olamiga oʻzingni oʻzing boshla, degan maʼnoda risola yozdim.

Abu Rayhon Beruniyning “Qimmatbaho javohirlar haqida bilimlar kitobi”, atomalik Juvayniyning “Jahon fotihi tarixi”, Svetlana Aleksyevichning “Urush ayollar ishi emas”, polyak adibi Luish Monteyruning “Mayixzoʻr erkak”, turkman adibi Otajon Togʻonning “Begona” asarlari mutolaasi, taniqli publitsist Yan Parandovskiyning “Soʻz kimyosi”, Ismoil Gʻaspralining qadim Andalusiyaga doir turkum maqolalari, Fitrat domlaning “Sharq siyosati” asarlarini oʻqish menga koʻp narsa hadya qildi.

Gʻasprali Sharqning ilm-maʼrifat yoʻli-dagi buyuk gʻalabalari, dunyoga mashhur ixtirolari bilan birga, noahillik, millatning ertangi kunini oʻylamaslik oqibatida Gʻarbni hayratga solgan ulugʻ mavqeyini qoʻldan boy bergan musulmon Andalusiyasining fojiasi sabablarini ochib beradi: “Madaniyat tarixining eng buyuk va tugal qoidalari(n) dan biri shudir: bir ulus tirikchiligining har toʻgʻrisinda yuksalib, taraqqiy qilib

SOʻZ – OLOV

tinchlansa, biror yoqda kuchliroq biron biri koʻrinmasa, oʻlkasi kengayib, oqchasi koʻpaysa, ul ulusning bora-bora axloqi buzular, totligʻi yoʻldan chiqaboshlar. Biz, sharqliklar, dahi tinchlik va rohat soʻnginda buzulib qoldiq, yoʻldan ozdik, ezgu tilaklarimizni unuta boshladik. Bilim va hunardan yuz qaytardik, birlik va axloqdan ayrilduk, oqchagʻa berilduk, oqchagʻa sotilduk... Sharqning butun ishlari ongsiz beklar, tushunchasiz xonlar, miyasiz mullalar, bilimsiz eshonlarning qoʻligʻa oʻtdi. Bu(n)lar Sharqning butun tuzuk va intizomini buzub yubordilar. Xonlar oʻz qorinlarini toʻydirmoq uchun xalqni bir-biri bilan urushtirdilar...”

Tadqiqotchi Qosimjon Sodiqov qalamiga mansub “Qutadgʻu biligʻ” soʻzligi” kitobidan koʻp koʻchirmalar oldim. Soʻzlikda Yusuf Xos Hojibning yetuk faylasuf, ilm va maʼrifat homiysi, osmon jismlarini keng oʻrgangan olim sifatida aytgan komil inson qanday boʻlishi, yuksak insoniy fazilatlarga erishish yoʻllari, mansabdorlarning turmush tarzi, odeb-axloqi, davlat va jamiyat manfaatlariga munosabati qay tartibda shakllanishi xususida gʻoyat muhim fikrlari bor. “Hayratlanarlisi shundaki, eski turkiytil lugʻati tarkibidagi soʻzlarning kishi oʻy-xayoliga kelmagan, boshqa yozma yodgorliklarda uchrayvermaydigan inja maʼnolarini ham “Qutadgʻu biligʻ”dan topamiz. Matnning ichiga chuqur kirib borganingiz sari, soʻzlarning yangi-yangi maʼnolari ochilaveradi”, deb yozadi tadqiqotchi. Darhaqiqat, shunday. Bunga yon daftaringga yozib olgan quyidagi hikmatlar dalil boʻla oladi:

Bu dunyo shoʻr suv kabitdir, qancha ichma, chanqogʻing qonmaydi.

Yaxshilik ham, yomonlik ham vaqt oʻtishi bilan ulgʻayadi.

Qoq qora tez yuqadi.

Tilling bilan soʻzla, ammo dilingdan soʻzla. Dunyo hammani qaritadi, ammo oʻzi qarimaydi.

Farosatsiz kishi tarbiyali kishini koʻrsa koʻngli ayniydi.

Behuda soʻz olov singari kuydirishi mumkin, uni ogʻzingdan chiqarma.

Qadr-qimmat istasang, oʻzgalarini qadrla.

Kitob bilan oshno boʻlgan kishining kitobxonligi bir umr davom etadi. Negaki, zamon oʻzgarani, yangilangani, hayot farovonlashgani sari insonning maʼnaviy

ehtiyoji ham oshib boradi. Bugungi oʻquvchi milliy adabiyot bilan birga, jahon adabiyoti xazinasidagi dur-gavhar asarlardan ham bahramand boʻlishni xohlaydi. Mamlakatimizda kitobxonlikka jiddiy eʼtibor berilayotgani, yoshlar “Jahon adabiyoti”, “Sharq yulduzi”, “Tafakkur”, “Maʼnaviy hayot”, “Saodat” kabi jurnallarni, ayniqsa, xorijiy tillardan oʻzbek tiliga oʻgirilgan asarlarni qiziqish bilan oʻqiyotgani gʻoyat quvonarli.

Turk olamida mashhur asarlardan biri Mahmud Koshgʻariy qalamiga mansub “Devoni lugʻatit turk” kitobidir. Uning bugun Istanbul shahrida saqlanayotgan yagona nusxasi qanday topilgani gʻoyat qiziqarli voqea.

Turkiyaning Diyorbakr shahrida tavallud topgan Ali Amiriy ismli yigit yoshligidan kitob mutolaasiga beriladi. Bu ishi bois, boshiga koʻp tashvishlar kelishiga qaramay, nodir kitoblarni yigʻishda davom etadi. Hayotining asl maʼnosini shu ishda koʻradi. Kunlarning birida uning boshiga omad qushi qoʻnadi: kitoblar sotiladigan rastalardan birida oʻzi bilmagan holda “Devoni lugʻatit turk”ni 33 liraga sotib oladi. Keyinroq bu yangilikdan koʻplar xabar topadi. Ular Ali Amiriydan ushbu kitobni katta pul evaziga sotib olishga harakat qilishadi. Ammo Ali bunga koʻnmaydi. Vengriyalik bir elchi unga naqd 10 ming oltin tanga berishga roziligini aytadi. Fransiyaning kelgan olim esa Parijning qoq markazida qurilgan hashamatli saroyini vaʼda qiladi. Ammo Ali Amiriy har ikki taklifiga ham rad javobini berib, “Men Vatanning noyob xazinasini pulga sotadigan xoin emasman”, deydi. Hukumat unga 300 oltin tanga joʻnatganida esa bu pulni mamlakatning och-nahor yashayotgan fuqarolariga boʻlib berish kerakligini aytadi.

Taniqli olim Asror Nizomovning “Mahmud Koshgʻariyning geografik merosi” nomli monografiyasini oʻqir ekanman, “Devoni lugʻatit turk”ka boʻlgan qiziqishim yanada ortdi. “Ushbu durdona asar jahonning koʻplab nuqtadon ilmparvarlari tomonidan koʻp va xoʻp tadqiq qilingan hamda oʻrganilmoqda, – deb yozadi Asror Nizomov. – Ammo shunday boʻlsa-da, uning hamon ochilmagan qirralari ilm osmonida porloq yulduz misol bot-bot oʻzini koʻz-koʻz qilib turadi. Shunday jihatlardan biri olimning geografik qarashlaridir... U ot

solgan turk elining goʻzal vodiylari, cheksiz choʻllari, oʻtib boʻlmas yuksak togʻlari, xullas, koʻplab geografik kengliklari olim uchun bitmas-tuganmas fikr ummoniga aylangan. Ushbu kengliklar boʻylab sochilgan turkiy xalqlarning tili, urf-odati, yuksak madaniyati, insoniy fazilatlari shohlik tojini kitob toʻla xurjunga almashgan sayyoh-olim juzdoniga bamisli qimmatbaho durlar kabi ketma-ket joylasha borgan. Yigirma yildan ortiq vaqt davom etgan mashqaqqatli sayohat davomida “Devoni lugʻatit turk”dek noyob bir asar, dunyo xalqlarining qimmatda tengsiz boyligi vujudga kelgan. Garchand, u uzoq vaqtlar tokchalar, kitob sandiqlarida oʻzining haqiqiy tadqiqotchilarini kutib yotgan, qoʻldan koʻlga oʻtaverib, oʻqilaverib, varaqlanaverib abgor bir holga kelgan boʻlsa-da, oxir-oqibat nafaqat dunyo zakiylarining nazariga tushdi, balki tadqiq etildi, hijjab oʻrganildi...”

Kitob monografiya talabida yozilgan boʻlsa-da, sodda va ravon tili, har bir faslning qiziqarli maʼlumotlari bilan oʻquvchini oʻziga tortadi. Eʼtibor bering: “Devoni lugʻatit turk”da geografik terminlar tavsifi, joylarning geologik tuzilishi, qazilma boyliklari, iqlim sharoiti, ichki suvlari, tuproq qatlami, oʻsimlik turlari, hayvonot dunyosi, Turon va unga yondosh hududlar toponimlarining etimologiyasi, aholining etnik kelib chiqishi va migratsiyasini oʻrganishning ahamiyati; qadimgi turkiy xalqlarning turmush tarzi, liboslari, roʻzgʻor buyumlari, zeb-ziyinati, turkiy muchal tavsifi, devonda keltirilgan, keyinchalik xalqaro til muomalasiga kirgan soʻz va atamalardan namunalar...

Monografiyani oʻqir ekansiz, ulugʻ vatandoshimiz Mahmud Koshgʻariy chuqur zehnlil tlishunos olim boʻlish bilan birga, zabardast oʻlkashunos ham boʻlganiga ishonch hosil qilasiz. Yanada muhimi, devonda keltirilgan qator atamalar turk tili oʻziga yondosh tillar hisobiga boyib borgan, shu bilan birga, boshqa tillarni ham boyitganidan faxrlanib ketasiz. Shu maʼnoda, muallifning bu tarixiy asarning hali oʻrganilmagan qirralari oʻz tadqiqotchilarini kutib turgani xususidagi fikriga toʻla qoʻshilasiz.

Kitobshunos olimlardan biri: “Chuqur maʼnoli, yillar, asrlar oʻtsa-da, ahamiyatini yoʻqotmaydigan kitoblarning kamligi – ofat”, deb aytgan ekan. Bugun endi har xil darajadagi, oʻrtamiyona va undan ham past saviyali “kitob”larning koʻpligi ofatga aylandi. Yupanch shundaki, ularni fahm bilan tanlab oʻqish imkoniyatimiz bor.

Ahmadjon MELIBOYEV

ZARDA

Memuar – jahon adabiyotida mashhur janrlardan boʻlib, bu turdagi asarda muallif oʻzi boshdan kechirgan voqealarni qalamga oladi va eʼtiborli jihati, muallif yozuvchi yoki shoir boʻlishi talab qilinmaydi. Hayotning achchiq-chuchugini totgan banda umri nihoyasida farzandlariga va albatta, boshqa oʻqimarlarga ibrat boʻlish uchun nimalarnidir qoralashga maʼnan haqli. Memuar – insonning boshqalar oldidagi hisoboti ham, yanada aniqroq aytsak, tavba-tazarrusi hamdir. Mashhur faylasuf Rokaul Kentning “Bu menman, Xudoyim”, chililik taniqli shoir, Nobel mukofoti sohibi Pablo Nerudaning “Iqromman – yashadim!” memuarlari bu janrning yetuk namunalaridan hisoblanadi. Ular memuarlarida erishgan yutuqlari bilan maqtanmaydi, oʻquvchiga pand-u nasihat qilib, aql oʻrgatmaydi – boshidan kechirganlarini ochiq-oydin qalamga oladi. Xatolarini ham, ayblarini ham. Aslida, janrning asosiy talablaridan biri ham shu!

Istiqlol zamonida Said Ahmadning “Topgan-larim va yoʻqotganlarim”, Shukrullonning “Kafansiz koʻmilganlar” asarlari, Shukur Xolmirzayevning Matyoqub Qoʻshchonov, Botir Zokirov haqidagi xotiralari milliy memuarchilikda olgʻa qadam boʻldi. Sobiq sovet zamonida bu janrga ragʻbat deyarli yoʻq edi. Bir-ikki kitoblarni aytmasa, u paytlar qalam ahli oʻzini bu janrdan tiyb turgan. Sababi, asari ming chigʻiriqdan hissi, ularda siyosiy ayb topilishidan qoʻrquv tizini saqlanib qolgan, yana mumtoz shoir va adiblarimiz sharqona odeb-axloq meʼyorlaridan kelib chiqib, har bir satrni qogʻozga tushirayotganida, atrofga tez-tez qarab qoʻyishga majbur boʻlgan.

Jadidlar taʼsirida dunyoga kelgan “Yosh xivaliklar” harakati yetakchilaridan Polvonniyoz hoji Yusupov qatagʻon boʻlishini anglagan holda yozgan memuari oradan 60 yil oʻtgach, mustaqillik davrida chop qilindi. Bu memuarda sovetlar tuzumi ziyovlari boshiga solgan koʻrgiliklar, aldov va qoʻrquv bilan mahv qilingan safdoshlarining taqdiri haqida achchiq haqiqatlar avlodlar uchun yozib qoldirilgan.

Buyuk adibimiz Abdulla Qodiriyning vaqti matbuotda eʼlon qilingan koʻpgina katta-kichik asarlari memuar talablariga mos tushadi. “Moskov xatllari”, “Saylovmi, bosqinchilikmi?”, “Otam va bolshevik”, “Davosiz dardlar” singari maqolalari, Samarqandda sudda soʻzlagan nutqi adibning yozilmay qolgan ulkan memuari parchalari, xolos.

Agar adib bevaqt qatagʻonga uchramaganida, bu janrda ham oʻlmas bir asar yaratgan boʻlardimi?

Bugun yurtimizda yaratilgan soʻz erkinligi tufayli “memuarbozlik” rosa avjiga chiqqan. Xususiy nashriyotlar ketma-ket bu janrdagi kitoblarni chop qilyapti. Nashriyotlar iqtisodni old oʻringa qoʻyayotganini tushunish mumkin, ammo oʻsha “memuar”lar mazmun-mohiyati uchun kim javob beradi? Albatta, mualliflar yoki ular nomidan yozayotgan qalamkashlar, dersiz. Toʻgʻri, nashriyotlar muallif nuqtayi nazarini hurmat qiladi, aytilgan soʻz uchun masʼuliyatni zimmasiga olmaydi. Bu esa...

qilishdan uyalmaydi), jamoa ahli yil – oʻn ikki oy davomida chekkan zahmatlar, meʼyorsiz mehnati uchun arzimagan choychaqa olgani haqida lom-lim demaydi. Qishloqda oʻsha davrda qurilgan neki bino boʻlsa – oʻzining faoliyati samarasi”. Goʻyoki, oʻsha binolarni shaxsiy mablagʻlari hisobidan qurdirgan.

Oʻtgan asrning ikkinchi yarmida uzoq yillar respublika hukumati raisi boʻlib ishlagan bir inson haqida chop qilingan kattagina kitob qoʻlimga tushib qoldi. Oʻqidim-u... rosti, ketgan vaqtimga achindim. Kolxoz raisini qoʻya turaylik, oʻz davrining katta siyosati qozonida qaynagan,

va holatlarning ochiq-oshkora bayon qilinishi uning tavba-tazarrusi deb baholanmogʻi kerak edi. Zero, butun ongli umrini sovet tuzumiga yedirib yuborgan inson qamoqdan qaytgach haj ziyoratiga bordi, Qurʼoni Karimni yod oldi – tavba-tazarru qildi.

Yetmish beshga kirgan bir inson oʻz hayoti va faoliyati haqida qogʻozga tushirgan qoralamalarini berib, uni kitob holiga keltirishimni iltimos qildi, adabiyot tili bilan ayt sak, “mahalliy ahamiyatga molik memuar”. U boshidan kechgan voqealarni erinmasdan oʻnta “umumiy daftar”ga yozgan ekan. Oʻtgan

MEʼYORINI BILMAGAN memuarbozlik

bilan keltirilgan ayanchli sahifalarni oʻqib, bu insonning irodasiga, mardligiga qoyil qoldim. Mana, yozsa boʻlarkan-ku!

Qoʻlyozmalarni tahrir qilib, kitobni (shu oddiy savdogar insonning qoralamalarini haqiqiy memuar desa boʻladi) nashriyotga topshirishdan oldin: “Ertaga bu kitob chiqsa, siz ochiq-oydin yozgan shaxslar yoki ularning farzandlari bilan sudlashishdan qoʻrqmaysizmi?” deb soʻradim. Uning javobi qatʼiy boʻldi: “Inson dunyoga bir marta keladi. Taqdiri uni turli yoʻllarga boshlaydi, xato qiladi, pushaymon boʻladi, oxir-oqibat yoshi bir joyga borganida, qilgan xatolari uchun tavba qilishni oʻylab qoladi. Qolaversa, bu yozganlarim, avvalo, farzandlarimga pand-u nasihatdir. Toki ular men kabi hayotda xato qilmasin, oʻgʻrilik, gijohvandlik, qimorbozlik kabi yomon yoʻllarga kirmasin!”

Bu yoqda esa uning zamondoshlari haqida turli-tuman kitoblar toʻxtovsiz chop qilinmoqda. Moddiy manfaatdorlik evaziga bu kabi kitoblarni yozayotganlardan oʻpkalashimiz kerakmi? Ular oʻz qahramoni aytganini qogʻozga tushiradi, ortiqcha soʻz va sifatlashlar qoʻsha olmaydi. Ammo, birortasi “qahramon”ning xizmatlarini sanash bilan bir qatorda, ish faoliyatida yoʻl qoʻygan bir-yarim xatosi (jinoyat demay turaylik) boʻlgan-boʻlmaganini nega bir ogʻiz surishtirmaydi? Axir oʻsha “insonparvar, adolati” deyilayotgan tuzum parchalanib ketgan ekan, demak, xato va kamchiliklar boʻlgan. Bular uchun esa oddiy xalq emas, yurt tepasida – uning baland-u past kursilarida oʻtigan kadrlar aybdor emasmi?

Bu kabi siyqalashtirish holatlarini hozirda rosa rumsma kirgan xotira kitoblari misolida ham uchratish mumkin. Kitob qahramoni haqida xotira soʻzlayotgan tanishi, zamondoshi, hamkasbi, shogirdlari bisotidagi boriki maqtovlarni yogʻdirishdan charchamaydi – bundan uyalmaydi. Biror kishi xotirasida: “Ha, beayb – parvardigor, sal xatolar ham boʻldi”, degan jumlni keltirmaydi. Xotira – muqaddas, deymiz, lekin u haqiqat aytilsagina muqaddas boʻladi. Yolʻon xotira, aslida, shaxsga nisbatan hurmat emas, haqoratdir. Negaki, bunday xotiralar muv kabidir, haqiqat quyoshi yuz koʻrsatsa, bir zumda erib ketadi.

Kitob doʻkonlariga qatorlashib turgan chiroyli kitoblarning muqovasida biror shaxs surati berilgan boʻlsa... yaxshisi, sal chetlab oʻting, vaqtiging ketgani, asabingiz oʻynagani qoladi. Hech ikkilanmay aytilish mumkin ki, bu kitoblarning manmanlik tuygʻusi bilan toʻlib-toshgan sahifalari zehniyatigingiz qayishtirib yuboradi.

Roʻzimboy HASAN



“NEGA YAPON YUZ YIL YASHAR-U...”

Boshlanishi 1-sahifada.

– Avvalo, buning asosida ustozlarimizning mehnati, jadid bobolarimiz yozgan kitoblari, oila va maktabda berilgan tarbiya yotadi, deb o'ylayman. Kishining qalbiga vatanparvarlik va millatsevarlik hissi yoshlikdan singdiriladi.

Aslida, jamiyatshunoslikda shunday bir “kasallik” borki, hozir odamlar atrofiga salbiy nazar bilan qaraydi, hamma narsadan shubhalanadi. Shundan hayotga ishonchsizlik kuchayib boryapti. Bu holat ayrim toifaga xos bo'lib, afsuski, ular soni ortib boryapti. Ijtimoiy tarmoqlarda ba'zi yurtdoshlarimizning fikrlarini o'qib, ko'pincha “Yo'q, noto'g'ri gapiryapsiz, aslida vaziyat bunday emas”, degim keladi. Chunki men yaxshi bilaman, millatimiz unchamuncha millatdan qolishmaydi. Ha, ayrim yurtdoshlarimiz qayerdadir xato qilayotgandir, lekin bu butun millatning aybi emas-ku. Shuni ko'proq odamga yetkazgim keladi. Shu maqsadda ko'limdan kelganicha harakat qilaman: jadid bobolarimizni, ulardan avvalgi ajdodlarimizni – ular orzu qilgan, kutgan yoshlar borligini, hech kimdan kam emasligini ko'rsatgim keladi. Ishonamanki, yaponlar 40–50 yilda erishgan yutuqlarga biz ham bemalol erisha olamiz. Faqat ishonch, mehnat va birlik bo'lsa, bas.

– Sizdagi mana shu jihatlar oilaviy muhit sababli emasmi?

– Albatta, onam hozir ham o'qituvchi ko'lib ishlaydi. Dadam ham oliy ma'lumotli. Ota tomondan ham, ona tomondan ham ziyolilar, jurnalistlar, shoirlar ko'p. Uyimizda har bir kishining shaxsiy kutubxonasi bor. Haftalik gazetalar, ro'znomalar doimiy o'qiladi. Aslida, shu muhit sabab ilm olishga qiziqqanman.

– Endi sizga yana bir savol: Yaponiyaga qanday borib qoldingiz?

– Bakalavriatni O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida, ingliz va yapon tillarida o'qiganman. O'zi, yoshligimda Yaponiyaga ketish orzusida bo'lmaganman. O'qish davrida endigina Yaponiyadan kelgan bir o'qituvchimiz bilan universitet hovlisida tanishib qolganman. Shu kuni biz ingliz tilida suhbatlashdik, unga o'zbek ovqatlarini tanishtirdim, shahar aylandik. Shunda undan yapon tilini jiddiy o'rganishga ilhom olganman. Keyinchalik o'sha ustozim bilan bog'lanib turdim, ularning tavsiyasi va yordami bilan Yaponiyaga bordim. Magistraturani o'sha yerdan o'qidim.

– Yaponiya – Ikkinchi jahon urushida vayron bo'lgan davlat edi. 1945-yilda ikki marta atom bombasi tashlandi: 6-avgust kuni Hiroshimaga, 9-avgust kuni Nagasakiga. Yuz minglab odam halok bo'ldi, mamlakat iqtisodi va sanoati to'liq inqirozga uchradi. Ammo oradan ko'p o'tmay, Yaponiya dunyodagi eng rivojlangan davlatlardan biriga aylandi. “Toyota”, “Honda”, “Nissan”, “Sony”, “Panasonic”, “Canon”, “Mitsubishi” kabi brendlar uning tiklanish ramziga aylandi. Shunday fojialardan keyin millatni “qayta tiriltirgan” kuchning siri nimada, deb o'ylaysiz?

– Ta'limda. Bu borada turli ilmiy ishlar qilingan. Ularda ta'limga bo'lgan munosabat juda kuchli. Maktabga bormaslikni tasavvur ham qilisholmaydi. Ko'zim tushib qoladi: hatto oyog'i singan bolalar ham qo'ltiqta yodqa maktabga ketayotgan bo'ladi. Bu ularning ma'rifatga, intizomga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi.

– Bizda esa, afsuski, ba'zan maktabga bormaslik uchun bahona izlab, oyog'i sinishiga rozi bo'ladigan bolalar ham uchraydi. Ustoz Abdulla Qahhorning bir hikoyasi esga tushadi: Bir kishi echkisini sudrab ketayotgan ekan, echki ikki oyog'ini yerga tirab, yurmas emish. Shunda u kishi deydi: “*Namuncha tixirlik qilmasang, men seni maktabga olib ketayotganim yo'q-ku, qassobga olib ketayman, xolos*”.

– Yaponiya sunamilar va zilzilalar davlati ekanini hamma biladi. Lekin shunday fojialarda ham ta'lim to'xtamaydi. Masalan, 2011-yil 11-mart kuni avval 9 ballik dahshatli zilzila bo'lgan, ortidan unam kelgan. 20–30 metr balandlikdagi to'liqlar butun shaharlarni yuvib ketgan, 18 mingdan ziyod odam halok bo'lgan. Bu Yaponiya tarixidagi eng og'ir fojialardan biri edi. Shunday sharoitda ham yaponlar oziq-ovqat yoki dori emas, maktab so'radi. Katta sport zallarda vaqtinchalik maktablar tashkil etildi, darslar qayta yo'lga qo'yildi. Qolaversa, yaponlarda bir ibora bor: “*Qanday millatga mansub bo'lishidan qat'i nazar, agar bizga bog'cha yoshidagi bolani bersangiz, biz undan yapon tayyorlaymiz*”.

Ota-onalar juda band bo'lgani uchun bolalar asosan ta'lim tizimi orqali tarbiyalanadi. Shu sababdan, ularda intizom, poklik, hurmat, navbatda turish, jamoa bilan muloqot madaniyati juda kuchli. Chindan ham, u tizim har qanday insonni yapon qilib tarbiyalaydi. Ular “Men – yaponman!” degan iftixor bilan yashaydi. Bizda esa...

Millatchilik emas, milliyatchilik – ya'ni, o'z

millatini sevish, uning qadriyatlarini himoya qilish hissini tarbiyalash juda muhim.

– Tez-tez eshitib qolamiz, maktablarda telefon, internet yoki o'yinlarga mukkasidan ketgan o'quvchilar masalasi ko'tariladi. Bu borada Yaponiya tajribasi qanday?

– Taniqli yapon jamiyatshunoslaridan biri aytgan: “*Internet dengizga o'xshaydi – undan foyda ham, ofat ham keladi. Har narsa me'yor bilan go'zal*”. Yapon maktablariga telefon olib kirish taqiqlangan, internetdan faqat ta'lim maqsadida foydalaniladi. Bolalarning kun tartibi tig'iz: ertalabdan kechgacha dars, sport va uy vazifalari bilan band bo'lishadi. Shu bois, ularda internet va o'yinlarga mukkasidan ketish holatlari juda kam. Yapon ta'lim tizimi armiyadek tartibli. Bola hamisha nazoratda, vaqtini qadrlash va tartib hayot tarziga aylangan.

– Yaponlardagi telefonni cheklash tizimiga havas qilsa bo'ladi. Shuning uchun ular kundalik ofatlar: suv toshqinlari, zilzila, iqtisodiy qiyinchiliklarga bardosh berib, jadal rivojlanib boryapti. Buning ortida mustahkam iroda, metindek intizom, katta e'tiqod turibdi. Inson o'z hayotining mazmunini topgan bo'lsa, uni yengib bo'lmaydi. Qo'rqqulik nega bo'ladi? Ishonchsizlikdan. O'z g'oyalari, Vatanini sevadigan bo'lsa, o'lim qo'rqqinchli emas. Urush yillarida olingan surat internetda tarqalgandi: Bir yapon bola o'lgan ukasini opichlab olgan, harbiylarcha turibdi. Unga: “*Yelkangdagi yukni tashla*”, deyishganda, bola shunday javob bergan: “*Bu – yuk emas, bu – mening ukam*”.

Chexovning “*Saxalin oroli*” asarini o'qiganimda, yapon xalqiga bo'lgan hurmatim yanada oshgan. Yaponiyaning qadimiy aholisi, ayniqsa, aynu xalqi haqida ba'zi tadqiqotchilar turkiy xalqlar bilan umumiy ildizlarga ega bo'lishi mumkin, degan ilmiy mulohazalarni bildirishgan. Biroq rasmiy yapon tarixshunosligi bu fikrni qo'llab-quvvatlamaydi. Yapon olimlari o'zlarini yamato xalqi, ya'ni Sharqiy Osiyo madaniy doirasining bir qismi deb hisoblaydi. Bunga oddiy yaponlarning munosabati qanday?

– Bu juda bahsli, lekin qiziq mavzu. Yaponiyaning eng qadimgi va nufuzli xususiy



qadimiy yodgorliklar va arxitektura obidalarini o'rganish bo'lgan. Kato Kyudzo Termiz, Fayzobod, Dalvarzintepa kabi buddaviylik markazlarida arxeologik tadqiqotlar olib borgan va yapon-o'zbek ilm-fani hamkorligiga katta hissa qo'shgan. U kishining do'ppi kiyib tushgan surati bor. O'zbekka o'xshaydi. Meni qiziqtirgan narsa shuki, ular hozir biz yashab turgan tuproqlardan o'sha yerlarga ketgan bo'lsa, fe'limiz nega bir-biriga yaqin emas?

– Menimcha, juda o'xshashmiz, ustoz. Bu mehmondorchilik, kichikka izzat, kattaga hurmat, cho'ch marosimlari, ayollardagi nazokat kabi sharqqa xos xislatlarda ko'rinadi.

– Yapon adabiyoti dunyoda ko'p o'qiladi, Amerika, Yevropa mamlakatlarida yashab, ijod qiladigan dongdor yaponlar bor. Zamonaviy yozuvchilardan Ryunoske Akutagava, Kobo Abe, Yasunari Kavatani, Xaruki Murakami mashhur. Yapon olimlari har yili Nobel mukofotiga nomzod bo'lib, turli ilmiy yo'nalishlarda muvaffaqiyatlarga erishadi. Bugun u yerda adabiyot, kitob, tilga munosabat qanday?

– Talabalik yillarimda “sababi tirikchilik”, bir nashriyotning yetkazib berish xizmatida ishlaganman. Yaponlarda gazetonlik darajasi juda kuchli. Bir ko'chada deyarli hamma uy ixtiyoriy tarzda obuna bo'ladi. U yerda mahalliy nashrlar internetdan ham tezroq ma'lumot tarqatadi, deyish mumkin. Har kuni ikki-uch marta nashr etiladigan gazetalar ham bor. Ko'cha-ko'ya, metroda deysizmi, gazeta o'qib ketayotgan odamlarni ko'p uchratasiz. Adabiyotga, kitobga mehri bog'cha, maktab, OAV va TVda ham tinimsiz targ'ibot qilishadi. Bir insonning



universitetlaridan biri bo'lgan Keyo universiteti olimlari aynularning madaniyati, musiqasi va genetik kelib chiqishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Shu universitetda dars beradigan bir olim bilan ko'p marta suhbat qilganman. U kishi yaponlarning ko'p qismi Markaziy Osiyodan kelgan, degan farazni ilgari suradi. Ayniqsa, aynular. Biz ham turkiy xalqlarmiz, degan ilmiy ish qilgan yapon olimlari ko'p. Hatto, yapon tili va o'zbek tillari orasidagi o'xshashliklar kishini hayratga soladi. 300 ga yaqin bir xil so'zlar bor. Albatta, buni tarixchi tilshunoslari o'rganadi.

– Surxondaryodan yapon madaniyatiga xos osori-atiqalar, xususan, buddaviylikka oid haykalchalar va ibodatxona qoldiqlari topilayotgani bejiz emas. Bu hudud qadimda Buyuk Ipak yo'lining muhim markazlaridan biri bo'lib, Yaponiyagacha cho'zilgan madaniy va diniy aloqalarning bosh nuqtasi hisoblanadi. Shu bois, yaponiyalik sayyohlar, tadqiqotchilar bu yerga tez-tez tashrif buyurib turadi. Ayniqsa, yapon arxeologi, antropologi va etnografi Kato Kyudzoning faoliyati bu yo'nalishda alohida ahamiyatga ega. Uning asosiy ixtisosligi – O'zbekistondagi

kunlik majburiy ishlari qatorida, masalan, ovqatlanish shart bo'lgandek, mutolaa bilan shug'ullanish ham shunday...

Yaponiyaning rivojiga katta hissa qo'shayotgan yirik kompaniyalar bor. Dunyo bo'yicha nufuzli brend mahsulotlar sotadigan tashkilotlarning rahbarlari kitob o'qishi bilan faxrlanib intervyular beradi. “Mitsubishi Bussan” kompaniyasini bilasiz. U mamlakatning xalqaro savdo aloqalarida muhim rol o'ynaydi. Rahbari Takaxiro Ito o'z nutqlarida mashhur kitoblardan tez-tez iqtibos keltirib turadi. Bu esa, o'z navbatida, unga havas qiladigan yoshlar qatlamida kitobxonlikka mehr uyg'otadi. Chunki yoshlar muvaffaqiyatga erishgan kishilardan o'mak olishga moyil. Bizda esa, afsuski, yirik tashkilotlarning boshliqlari kitob o'qimasligi bilan faxrlanishini aytib chiqadi.

– Kitob olishga puli, o'qishga vaqti yo'q bo'lsa, tushunish mumkindir. Lekin ba'zilar falon joylarga borib, dam olishga vaqt va pul topadi-ku! Ular “Men kitob o'qimayman” deganida, qulog'imga “Men ahmoqman” deb eshitiladi. Ko'pchilik “Yaponiya tashqaridan qaragandagina go'zal ko'rinadi. Ular ko'rgazma qilishni do'ndirishadi” deydi. Haqiqatan ham shundaymi?

– Bir maqolamda “Yaponiya asal oyida yurgan kelin-kuyovga o'xshaydi”, deb yozganman. U yerga sayohatga borganda, boshida hammasi chiroyli ko'rinadi: toza-ozoda ko'chalar, mahobatli binolar, xushmuomala odamlar, xizmat ko'rsatishdagi a'lo daraja... Chindan ham, sayohat uchun eng yaxshi davlatlardan biri. Lekin uzoq vaqt yashaganda, u yerdagi bosim, odamlardagi tushkunlik, hatto, millatchilik masalalari, chet elliklarga nisbatan yashirin nafrat, elining ichki muammolari: ota-ona, qo'ni-qo'shniga nisbatan mehr-oqibatning yo'qligi yaqqol seziladi. Ayniqsa, e'tiqodning sustligi yoki umuman e'tiqodsizlik kuchayib bormoqda. Yaponiyada sintoizm va buddizm asosiy dinlar sifatida birgalikda mavjud. Aholining katta qismi o'zini muayyan din vakili deb hisoblamaydi. Shu bilan birga, diniy marosimlar, masalan, sinto to'ylari yoki buddaviy dafn marosimlari madaniy an'analar sifatida saqlanib qolgan. Yaponiya dunyoda dinsizlik darajasi yuqori bo'lgan davlatlardan biri hisoblanadi.

– Mana shu fojialar orasida, urush bo'lmayotgan tinch sharoitda ham Yaponiya aholisining yiliga millionlab kamayib borayotgani tashvishi. Bu holat ortida, menimcha, milliy qadriyatlarining yo'qolishi, bolaga mehrsizlik, shaxsiy oromni ustun qo'yish, xudbinlik va eng muhimi, millat taqdiriga befarqlik kabi muammolar yotadi.

– Ko'pchilik moliyaviy qiyinchiliklar tufayli oila qurmayotgani yoki farzand ko'rishni istamayotganini aytadi. Rostdan ham, o'ila bir kishi ko'paysa, moliyaviy muvozanat buzilishi mumkin. Farzandni to'liq ta'minlay olmaslik xavfi bor.

– Yaqinda yaponiyalik taniqli jadidshunos olim Hisao Komatsu bilan gazeta-mizda suhbat chop etildi. U kishi o'zbek to'y va marosimlari haqida maqola yozgan. Unda jadid bobolarimizning to'y va ortiqcha marosimlar haqidagi o'tkir fikrlaridan iqtibos keltirilgan. Men qiziqib so'radim: “*Yaponlarga o'zbek to'ylarining nimasi qiziq? Nega ilmiy-tadqiqot qilishga ehtiyoj tug'ildi? Jadid bobolar uchun nega buncha jon kuydiryapsiz?*” Uning javobi juda hayratlanarli bo'ldi: “*Jadid bobolar dunyo ma'rifatli bo'lsin, olamda tinchlik bo'lsin degan. Bizning yapon xalqi ham shu g'oyalar asosida yashaydi. Shuning uchun jadid bobolar bosib o'tgan yo'l biz uchun qiziq*”, deb o'zbek tilida javob berdi. Ustoz Erkin Vohidov bir she'rida: “*Nega yapon yuz yil yashar-u O'zbek buncha yoshga bormaydi?*” degan va unda o'z javoblarini aytib ketgan. Siz bunga nima deysiz?

– Yaponiyada uzoq umr ko'rishning birinchi va asosiy sababi – bu yerda hayot

sifati juda yuqori ekanidir. Bundan tashqari, Yaponiyada tibbiyot juda yaxshi rivojlangan. Bog'chadan boshlab, maktablar, ish joylari va pensiya davrida har yili qat'iy tarzda tibbiy ko'rikdan o'tish majburiy hisoblanadi. Bu orqali kasallik paydo bo'lishidan avval uning oldi olinadi. Mamlakat to'rt tomondan dengiz bilan o'ralgani uchun ob-havo va iqlim, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ancha sifatli. Ularning sportga bo'lgan mehri ham havas qilarli.

– Bizda ovqat eng ko'p yeyiladigan, ta'bir joiz bo'lsa, isrof qilinadigan joy – to'yxona. Endi yapon to'ylari va ovqatlanish madaniyati haqida gaplashedak.

– Yaponlarda to'yga kelin-kuyovning eng yaqin qarindoshlari keladi. Boshlovchilik qiladigan kishi ham o'zlaridan. Yosh oila deyarli xarajat qilmaydi. Mehmonlar har biri taxminan 200–250 dollar to'yana bilan keladi. Bu mablag' to'y xarajatlari qoplaydi. Qolganiga mamlakat yoki dunyo bo'ylab sayohat qilish mumkin. Qo'shiqchilar deyarli bo'lmaydi. Raqslar ham yo'q hisobi. Ovqatlar ham ko'pmas: salat, kichik kosada sho'rva beriladi. Qo'shiqchilar to'y orqali tirikchilik qilmaydi, asosan konsertlardan daromad oladi. “Dinner shou” bor shu paytda “qistir-qistir” bo'ladi. Odatda, 20–25 kishilik to'y bo'ladi.

– To'y masalasi-ku, tushunarli, dafn marosimlari qanday? U yerda janozada hamdardlik puli berilarkan. Bu ham ibratli jihat. O'zi boshiga musibat tushib turgan kishidan marhumning haqiga atab ehson oshi qilishni talab etish to'g'rimas. Bu haqda ma'rifatparvar bobomiz Mahmud-xo'ja Behbudiy: “*Millatimiz taraqqiyotiga to'g'anoq bo'ladigan ikki narsa bor: bu – to'y va azadir*”, deya ko'p ta'kidlagan. Hattoki, Samarqandda to'y yoki azo xarji uchun yashab turgan xonadonini garovga qo'yib qarz olib, to'lolmasdan uy-joyidan ajrab qolgan kishilar haqida kuyunib yozgan. Bu masalalar u yodda qanday?

– Ta'ziyalarda bir mann (buni men “tuman” deb atayman) beriladi. Bu yuz dollar atrofidagi pul. Shu safar O'zbekistonga kelib, bir hodisaning guvohi bo'ldim: tanishim mehmonxonasini, uyining tashqi ko'rinishini juda chiroyli va sifatli qilib qo'ygan. Ammo o'zi va bolalari uxlaydigan xona va ayniqsa, hammom-hojatxonalar sharoiti unchalikmas. Shunda unga mehmon oyda-yilda bir keladi, o'zing uchun yashashni o'rgan, dedim.

Yaqinda xatna to'y sabab qarindoshlarni chaqirib, yigirma kishiga ham bormaydigan marosim o'tkazdik. Ijtimoiy tarmoqlarda kuzatgan bo'lsangiz kerak, bu tashabbusga xayrixoh bo'lganlar ham, yomon fikr bildirganlar ham bo'ldi. Quvonarlisi, menga “shaxsiy”dan yozib, men ham shunday qilaman, marosimlarni qisqartiraman, degan yurtdoshlarimizning videolari keldi. Umuman, millatsevar yurtdoshlarimiz ko'p. Yaqinda tuproqshunoslik bo'yicha Yaponiyada ilmiy ish qilgan olim qizimiz O'zbekistonga qaytdi. Avvalroq, unga Yaponiyada: “Bizda qoling, loyihamizda ishleng, 10–15 ming dollar oylik beramiz, falon joydagi tuproq tarkibini o'rganishga yordam bering”, degan mazmunda taklif berishgan. U esa: “Menga O'zbekiston tuprog'i aziz!” deb qaytdi. Bu yerda o'rganiganlarimni o'z yurtimda sarf qilaman, dedi.

– Kuni kecha afg'onistonlik o'zbek olimi bilan suhbatlashganda shunday xulosa qildimki, necha yuz yillik Xuroson davlati tizgini o'zbeklardan ketishi u yurtida tilimzning nufuzi yo'qolgani bilan bog'liq ekan. Yaponiyada tilga bo'lgan munosabat qanday?

– Ular juda tilsevar xalq. Xorijliklarga bu yaqqol seziladi. Mahalliy arizalarni ham yapon tilida yozish majburiy. Ba'zi bir masalalar borki, ular borasida muros qilinmaydi. Qonunlari qat'iy va shafqatsiz. Tilga bo'lgan e'tiborsizlikni millatga bo'lgan haqorat deb qabul qiladi yaponlar. Ulardan o'rganadigan jihatlarimiz ko'p. O'rgatadiganimiz ham...

– Bizda ham keyingi yillarda ilimga, ta'limga, yoshlarga e'tibor sezilarli kuchaydi. Kimdan so'rasang, dunyoning mashhur ta'lim dargohlarida o'qish istagini bildiradi. Aniq fanlar masalasida ham dunyoqarashimiz o'zgardi. Ilgari ko'proq adabiyot va tarix bilan andamon edik. Bugun Davlat rahbari bobolarimiz asos solgan Renessanslar aniq fanlar ustiga qurilganini ta'kidlab, bu sohaga alohida e'tibor qaratyapti. Bahodir do'stim, Xudo xohlasa, Siz bilan o'n yildan keyin shu mavzuda yana gaplashamiz. Biz bu dunyoda kimligimizni isbotlaydigan xalqimiz. Samimiy suhbat uchun tashakkur bildiramiz va Sizga “Jadid” gazetasi Yaponiyadagi maxsus muxbiri vazifasidagi ishlaringizda muvaffaqiyat tilaymiz.

Suhbatdosh: Iqbol MIRZO



MILLAT FIDOYILARI

Buxorodagi jadid harakati ham murakkab va mashaqqatli yoʻlni bosib oʻtdi. Oʻsha damlarda bu koʻhna zaminda tashkil etilgan ilk usuli jadid maktabi oʻquvchilarining bilimidan taʼsirlangan keksa ziyolilardan biri koʻziga yosh olib shunday deydi: “Men umidvormanki, oʻn yilgacha Buxoroda inqilob voqeʼ boʻlar, vatan avlodi bu kuni razolat va safolatdan qutulur, esizki, u kunni men koʻra olmayman, siz yoshlar koʻrasiz. Ming qatla shukurkim, ishning boshlanganini koʻrdim”. Aynan shu fikriy uygʻonish pallasi – bir tomonda oʻzgarmas amirlik tartiblari, ikkinchi tomonda esa yangi bilim va adolatga tashnalik – qahramonimiz Rajab Muhammedov hayoti misolida yorqin gavdalanadi.

1875-yili togʻ-kon ishchisi oilasida tugʻilgan Rajab bolaligidanoq ana shu ziddiyatli muhit ichida oʻsib-ulgʻaydi. Dastlab Buxorodagi boshlangʻich maktabda, soʻngra madrasada sakkiz yil tahsil oldi. Madrasa taʼlimi bilan barobar ravishda zamonaviy bilimlarga ham oshno tutindi. Arab, turk va fors tillaridan saboqlar unga anʼanaviy manbalarni chuqur anglash imkonini bergan boʻlsa, rus tilini mukammal oʻrganishi davr ruhiyasini, sharq va gʻarb oʻrtasidagi siyosiy jarayonlarni qiyosan tahlil qilishga yoʻl ochdi. Toʻplagan ilm-u tajribasi Buxoroda sekin-asta kuchayib borayotgan islohotlar mohiyati magʻzini chaqishga koʻmak berdi. Ayni bilimlar “toshga oʻyilgan naqsh” kabi keyinchalik uning siyosiy faoliyatida namoyon boʻldi.

Yirik siyosatchi va davlat arbobi Fayzulla Xoʻjayev Buxoro jadidlarining Turkistondagi islohotchilik harakatidan farqli jihatlarga eʼtibor qaratib, bunday yozadi: “Buxoroda harakat boshqa yoʻl bilan bordi. Buxoro jadidligi dehqonlar va mayda savdogarlarga tushadurgan soliq qoʻrqlarini yengil qilish ham soliq ishlarini umumiy tartibga solish toʻgʻrisida ochilgan gapdan boshlab, tadrifiy surʼatda koʻp aʼzolar, shoʻbalar va Buxoro xalqi-ni har xil tabaqalari orasidagʻi oʻziga xayrixoh omma bilan birga haqiqiy bir yashirin jamiyatga aylana bordi” (“*Buxoro inqilobining tarixiga materiallar*”. Toshkent, “Fan”, 1997. 63-bet).

Keyinchalik bu harakatga maktab va madrasalarni isloh qilish, dunyoviy fanlarni oʻqitishga eʼtiborni kuchaytirish kabi maʼrifatparvarlik gʻoyalari bilan chiqqan ayrim hukumat amaldorlari, mahalliy boylar, savdogarlar, ulamolalar, mudarrislar va talabalar qoʻshildi. Ular safida Ahmadjon Hamdiy, Abduvohid Munzim, Hamidxoʻja Mehriy, Sadridin Ayniy, Xoja Rofeʼ, Mukammal Burhon, Usmonxoʻja Poʻlatxoʻja oʻgʻli, Atoxoʻja kabi shaxslar va turgan gapki, qahramonimiz ham boʻlgan.

Shu yillarda Rajab Muhammedov Buxoro amirligidagi mavjud holat: bosh-qaruvdagi adolatsizlik, zoʻravonlik, madrasa tizimining zamonaviy ilmlardan uzilib qolayotgani hamda yosh-yalangning taʼlim olish imkoniyati cheklangani ortidan tuzum ichdan yemirilib, tobora moʻrtlashib borayotganini bevosita kuzatdi. Shu bois, islohotlarni qatʼiyat bilan amalga oshirish zarur ekanligini yuqalab chiqdi. Biroq amir Said Olimxon jadidlarning bunday harakatini xavf deb qabul qilib, ular faoliyati qatʼiy nazoratga olindi, ularga nisbatan turli maʼmuriy

cheklovlar qoʻllana boshladi. 1917-yil apreliga kelib, Buxoroda jadidlarga qarshi quvgʻin boshlandi. Koʻplab maʼrifatparvarlar kabi Rajab Muhammedov ham taʼqibdan qochishga majbur boʻldi. Avval Kogon, soʻng Toshkentga bordi.

1917-yilda Rossiyadagi inqilob toʻlqini butun mintaqani qamragan bir paytda, Turkiston va Buxoroda ham siyosiy hayot jadallashdi. Buxoroda eski tuzumga qarshi chiqishlar kuchaydi, jadid ziyolilari yangi tuzum, yangi davlat boshqaruvi haqidagi gʻoyalarni ilgari surishdi. Toshkentga koʻchib kelgan Rajab Muhammedov ham ana shu davrda siyosiy harakat maydoniga kirdi.

...1920-yilning sentyabr oyida Ozarbayjon poytaxti Bokuda Sharq xalqlarining birinchi

qoʻlimga bir paket topshirilgan, bu hujjatning mazmuni menga maʼlum emas edi. Shunda menga ikkita shamshir, Qurʼoni Karim va 3000 dona oltin tanga ham berilgan edi”, deb maʼlumot beradi.

“Turkiyada men Kamol Posho bilan uch marta uchrashdim, – deydi u. – Oʻsha paytda janobi oliylari meni savolga tutdi, men esa unga BXSР va RSFSR oʻrtasidagi munosabatlar, BXSР faoliyati, tashkilotlar va muassasalar tuzilishi haqida gapirib berdim. Ammo bolsheviklarga qarshi kurash masalasiga u ham, men ham toʻxtalmadik. Paketdagi hujjatni Turkiya tashqi ishlar vazirligiga topshirdim. 3000 dona oltin tanga esa Turkiyadagi buxorolik talabalar xarajatlari uchun berildi”.

JAZOLANGAN JASORAT

qurultoyi boʻlib oʻtadi. Bu tarixiy yigʻinda 3 mingdan ortiq vakil, jumladan, Turkistondan Munavvar qori Abdurashidxonov, Hoji Safo Joʻraboʻyev, Turor Risqulov, Qudratillo Yunusiy, Toshpoʻlatbek Norboʻtabekov, Obidjon Mahmudov, Buxoro jadidlari nomidan Rajab Muhammedov ishtirok etadi. Bu qatnashuv qahramonimiz nomini mintaqaviy siyosiy maydonda tanitishga xizmat qiladi.

Qurultoy davrida turk generali Anvar posho bilan uchrashib, sovetlarga qarshi istiqloq harakatlarini qoʻllab-quvvatlash, qoʻrboshilar bilan birlashish kerakligi haqida suhbat boradi. Tergov hujjatlarga koʻra, Rajab Muhammedov 1920-yilda Bokuda oʻtkazilgan yigʻilishda muhokama etilgan asosiy masala – Anvar Poshoni Sharq xalqlari qurultoyiga qatnashuvchilar qatoriga qoʻyish yo qoʻymaslik yuzasidan Muhammedov hayʼat tarkibi aʼzosi sifatida Anvar Poshoni qurultoyda qatnashtirish tarafdori ekanini bildiradi.

1920-yil kuzida amir Said Olimxon hokimiyati agʻdarilib, oʻrnida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSР) tashkil etiladi. Yangi respublika tuzilgach, Rajab Muhammedov davlat boshqaruv tizimida ish boshlaydi. U hukumat delegatsiyasi aʼzosi sifatida RSFSR bilan boʻlib oʻtgan ilk muzokaralarda qatnashadi. 1921-yil 4-martda tuzilgan “Ittifoq shartnomasi” hamda qoʻshma iqtisodiy kelishuvni Buxoro nomidan imzolagan vakillardan biri boʻladi. Hujjatda uning ismi jadid harakati yetakchilardan Mirzo Muhitdin Mansurov va Rahmat Rafiq Abdullabekov qatorida qayd etilgan. Bu esa Rajab Muhammedovning Buxoro sovet rahbariyati tarkibida yuqori lavozimda boʻlganidan dalolatdir. Shu yili u BXSРning tashqi ishlar va savdo boʻyicha vakili sifatida ish yuritadi. Uning shaxsiy tashabbusi bilan Buxoro va Rossiya oʻrtasida savdo-iqtisodiy munosabatlar kengayib, diplomatik hamkorlik asoslari kuchayadi.

1921-yil noyabrda u maxsus topshiriq bilan Turkiyaga yoʻl oladi. Keyinchalik tergov hujjatlarida bu haqda u: “Oʻshanda

Safar davomida Rajab Muhammedov Turkiyada qariyb sakkiz oy yashaydi. Bu vaqt mobaynida mamlakatda yuzaga kelayotgan uygʻonish kayfiyati, maorif ishlarini yaqindan kuzatadi. Turk ziyolilarining yangi usulda taʼlim berish, jamiyatda faollikni kuchaytirish va taraqqiyga intilishlari unda katta taassurot qoldiradi. 1922-yil oxirida Buxoroga qaytadi. Yoʻl-yoʻlakay Botumida RSFSR vakili bilan uchrashib, Buxorodagi vaziyat, xususan, Anvar Posho rahbarligidagi isyon haqida xabar topadi. Shu sababli, u turk konsulini Botumida qoldirib, Buxoroga yolgʻiz qaytadi.


1923-yil boshida Rajab Muhammedov BXSР tribunali raisi oʻrinbosari sifatida ish boshlaydi. Uning faoliyati bu yillarda asosan davlat maʼmuriyati va sud tizimi bilan bogʻliq boʻldi.

Tergov materiallarida qayd etilishicha, oʻsha yili Buxoro Xalq Sovet Respublikasi qurultoyida Rajab Muhammedov respublika nomidan RSFSR vakili Pozdnishevga Lenin portretini tantanali tarzda topshirar ekan, unga “Buxoroda qimmatli narsalar qolmagani, yaʼni oltin va brilliantlar Moskvaga olib ketilganini, endi Lenin va leninizmdan boshqa hech narsa qolmaganini” qistirib oʻtadi. Keyinchalik ushbu holat ham tergov jarayonida koʻtarilar ekan, qahramonimiz javobi shunday boʻladi: “Balki men bu bilan notoʻgʻri ish qilgandirman, chunki oʻshanda siyosiy jihatdan yetarli darajada rivojlanmagan edim”. Aslida-chi? Bu manzara, aybni goʻyo “siyosiy tajriba yetishmasligiga yoʻyish” qahramonimizning siyosat olamida aqli raso ekan, vaziyatni baholash qobiliyati va xatarli sharoitda ham fikrni bilvosita yetkaza olish mahoratini ochiqlaydi.

Shu tariqa, 1921–1923-yillar Rajab Muhammedov hayotida siyosiy faoliyatning eng sarmazmun, shu bilan birga, eng xatarli davri boʻlib qoldi. Chunki keyinchalik tergov jarayonlarida uning ayni shu yillardagi jasoratlari soʻroqqa tortildi. 1923-yildan keyin Buxoro Xalq Sovet Respublikasida siyosiy hayot yangi bosqichga oʻtdi. Respublika rasman sovet tizimiga kirib, Moskvaga tobe

boʻlgan markazlashgan boshqaruv tizimi shakllandi. Bir paytlar mustaqil yoʻl izlagan va milliy islohot gʻoyalari ilgari surgan jadidlar endi siquvga olina boshladi.

Rajab Muhammedov ham oʻsha yillardagi siyosiy jarayonlar girdobida qoldi. Yangi tuzum oʻrnatilishi bilan mafkuraviy nazorat keskin kuchayib, mahalliy kadrlarga ishonch ozaydi. Muhammedovning keskin fikr bildirish odati, siyosiy masalalarga ehtiyotkor, ammomustaqilyondashuvirasmiydoiralarda shubha uygʻota boshladi. Shu bilan birga, uning Turkiya safari chogʻida Mustafo Kamol Otaturk bilan uchrashgani, Bokuning Sharq xalqlari qurultoyida qatnashgani va u yerda bildirgan mulohazalari, Anvar poshoni himoya qilib chiqqani ham keyinchalik



Rajab Muhammedov (1875–1937)

“ishonchsizlik” sifatida tilga olinib, tergov organlari tomonidan shubhali holatlar qatoriga qoʻshib qoʻyildi.


1920-yillarning oxiriga kelib butun ittifoq boʻylab “millatchilik” va “panturkizm” ayblovlari bilan ziyolilar taʼqib etila boshladi. Buxoro va Turkiston jadidlariga ham navbat yetdi. Qattol siyosiy muhitda Rajab Muhammedov ham “millatchi va aksilingilobchi” degan tamgʻa bilan oʻn yillar kuzatuv ostida yashashga majbur boʻldi. 1937-yil 9-yanvar kuni u rasman hibsga olindi. Ayblov xulosasida uning “Milliy ittihad” nomli maxfiy tashkilotga aʼzo ekan, Turkiyada Mustafo Kamol Otaturk bilan “bolshevikizmga qarshi kelishuv” tuzgani va “millatchilik gʻoyalari targʻib qilgani” qayd etilgan edi.

1937-yil bahorida Rajab Muhammedov ozodlik soʻrab, Oʻzbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissari va prokuroriga ariza yozadi: “Meni asossiz qarorlar asosida uch yarim oydan beri Buxoro va Toshkent qamoqxonalarida tutib turdilar. 23-apreldan buyon ochlik eʼlon qilishga majbur boʻldim. Shu arizani olishingiz bilan men toʻgʻrimda Fayzulla Xoʻjayev, Yoʻldosh Oxunboboyev, Kanabiyev va Moskvadagi Paskutskiy oʻrtoqlardan soʻrab, eski inqilobchilardan buni qolsin degansiz... Yaxshi diqqat bilan oʻzingiz menga baho berishingizni qatʼiy soʻrayman”. Afsuski, bu iltimos inobatga olinmadi. Rajab Muhammedov 1937-yil 17-avgustda otuvga hukm qilinib, hukm 26-avgust kuni ijro etildi.

Rajab Muhammedov millat ozodligini orzu qilib oʻtdi. Najotni taʼlimda koʻrdi. Maʼrifat xalqni qutqaradi, deb ishondi. Shu aʼmolidan chekinmadi, aslo ortga qaytmadi. Oʻz yurti erkinligi, farovon kelajak uchun qaygʻurdi. Neke jasorat boʻlsa, bari mana shu orzularga payvasta edi. Mana shu sadoqat uni milliy uygʻonish tarixida oʻchmas iz qoldirgan shaxsga aylantirdi.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

XOTIRA AZIZ



QATAGʻON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi oʻtgan sonlarda).

Umar Rahimov – 1880-yili Qashqadaryo okrugi Imom-Yoqub qishlogʻida tugʻilgan. “Milliy ittihad” millatchi aksilingilobiy tashkilotining sobiq aʼzosi boʻlgan. Aholi orasida doimiy aksilingilobiy millatchilik targʻiboti olib borganlikda, SSSRdagi ocharchilik haqida mish-mishlar tarqatganlikda, SSSR konstitutsiyasi ustidan kulganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblangan. Hibsga olingan vaqtda xizmatchi boʻlgan.

Abdulla Rahmatzoda – 1901-yili Qoʻqon shahrida tugʻilgan. 1930-yili aksilingilobiy faoliyati uchun 5 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. VKP(b) safidan chiqarilgan, “Milliy ittihad”ning aʼzosi, hibsga olingan paytda aniq mashgʻuloti boʻlmagan. Unga aksilingilobiy, millatchilik targʻiboti olib borgan, “Talabalar jamiyati” nomli aksilingilobiy, millatchi jamiyat tashkilotchisi va rahbari boʻlganligi aybi qoʻyilgan. Bosmachilik davrida qurol-aslaha tayyorlash bilan mashgʻul boʻlgan, panislomchilar rahbari Mullo Yaring Begiyevni maqtaganlikda ayblangan. OʻzSSR IIXK Qoʻqon shahar boʻlimi 241/1747-sonli ish boʻyicha ayblanib otuvga hukm etilgan.

Asil Mansurov – 1904-yili Namangan shahrida tugʻilgan. “Nashri Maorif” va “Milliy ittihad” aksilingilobiy tashkilot aʼzosi boʻlgan. Hibsga olingan paytda aniq mashgʻuloti boʻlmagan. Namangan shahridagi aksilingilobiy tashkilot aʼzosi, gazetada millatchilik materiallarini koʻplab eʼlon qilganlikda ayblangan. OʻzSSR JK 66-moddasi 1-bandi bilan ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 28-iyuldan hisoblangan.

Nizomiddin Xoʻjayev – 1886-yili Toshkent shahrida tugʻilgan. Turkistonning “Ittihad va taraqqiy”, “Milliy ittihad” aksilingilobiy tashkilotlari faol aʼzosi. Turkiston muxtoriyatini tashkil etishda yetakchilardan biri. 1920-yil sentyabrda Bokudagi Sharq xalqlari qurultoyida Anvar Posho bilan uchrashgan, u uyushtirgan yigʻilishda qatnashgan. 1935-yil 5-noyabrda Nizomiddin Xoʻjayevning uyida tintuv oʻtkazilgan va u hibsga olingan. Kirov obasti sud jinoiy ishlar boʻyicha sudlov hayʼati 1938-yili RSFSR Jinoyat kodeksining 58-10-moddasi bilan uni 4 yilga mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilgan.

Turobbek Toʻrabekov – 1898-yili Zominning Achchi qishlogʻida tugʻilgan. Eski maktabda, rus-tuzem maktabida taʼlim olgan. 1917-yil fevralgacha tilmoq, inqilobdan soʻng Qoratosh ijroqoʻmi raisi, Jizzax shahar militsiyasi rahbari boʻlib ishlagan. Ammo sovetlarning bosqinchilik siyosatidan nafratlanib, istiqloqlar tomoniga oʻtgan. 1934-yil 14-oktyabrda otuvga hukm etilgan.

Boqi Mahmudov – 1903-yili Andijon shahrida tugʻilgan. “Milliy ittihad” tashkilotining aʼzosi, bosmachilar bilan aloqada boʻlgan, aksilingilobiy, millatchi guruhlar aʼzosi sifatida targʻibot olib borganlikda, oʻquvchi-yoshlarni millatchilik ruhida tarbiyalaganlikda ayblanib 1937-yil 13-noyabrda 10 yil qamoq jazosiga hukm qilingan. Boqi Mahmudov 1939-yil 22-oktyabr qamoqxonada vafot etgan. 1959-yil 4-noyabrda oqlangan. Uning yolgʻiz farzandi Toyloq Mahmudov hozirda Andijon shahrida yashaydi.

Hojixon Qanoatov – Yangiqoʻrgʻon rayoni Kushan qishlogʻidan. Millati oʻzbek, OʻzSSR fuqarosi, eшонning oʻgʻli, uylangan. Uyi bor, sudlanmagan. Nosirxontoʻra va Istambeklarning bosmachi qoʻzgʻolonchi tashkilotining Kushan yacheykasi aʼzosi boʻlgan. Nosirxontoʻraning bosmachi qoʻzgʻolonchi tashkiloti rahbarlarining aloqachisi hamda bosmachi qoʻzgʻolonchi tashkilotga yangi aʼzolari yollash boʻyicha maxsus topshiriqlarni yetkazgan. OʻzSSR JK 58–67-moddalarida koʻzda tutilgan jinoyatlarni sodir etishda ayblangan.

Hikmatulla Xismatov – 1898-yili Samarqandda tugʻilgan. Millati tatar. Toshkent shahar Abdulla Toʻqayev koʻchasi 9-uyda yashagan. Inqilobgacha Samarqand shahrida istiqomat qilgan. Oliy maʼlumotli, 1918-yildan VKP(b) aʼzosi boʻlgan. 1919-yildan 1921-yilgacha, keyin 1931–1937-yillarda “Ittihad va taraqqiy” va “Ittihad islom” tashkilotlar safida boʻlganlikda ayblangan. H.Xismatov Oʻzbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarlariga ariza bilan murojaat qilgan. Mahbusning har ikki murojaati ham eʼtiborga olinmagan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori
Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi
(Davomi kelgusi sonda).

YANGI NASHR



Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston oʻz tarixining murakkab va fojiali sahifalarini qayta anglash, mustabid tuzum davrida nohaq jabr koʻrgan millionlab vatandoshlar xotirasini tiklash yoʻlida muhim qadamlar tashlamoqda. Ushbu keng koʻlamli jarayonning yorqin namunasi sifatida Namangan viloyati hududida yashab, turli davr qatagʻonlari iskanjasiga tushgan yurtdoshlarga bagʻishlab “Xotira kitobi” chop etildi.

Ushbu asar oʻtmishimizga munosabat, milliy oʻzlikni anglash va tarixiy xotirani shakllantirish yoʻlidagi davlat siyosati mazmun-mohiyatini yoritib beruvchi fundamental nashrdir.

Kitobning yaratilishi Prezidentimizning “Qatagʻon qurbonlarining merosini yanada chuqur oʻrganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi farmoyishi bilan bevosita bogʻliq. Unga koʻra, shahid boʻlgan yurtdoshlarimiz xotirasini kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish maqsadida koʻp jildlik “Qatagʻon qurbonlari” Xotira kitobini nashrga tayyorlash vazifasi belgilangandi.

Kitobning bosh maqsadi, shundan kelib chiqib, Rossiya imperiyasining mustamlakachiligi hamda sovet tuzumi yillarida jabr-u zulm chekkan, qatagʻonga uchragan fidoyi

yurtdoshlarimiz nomini tiklash, ular xotirasini abadiylashtirishdan iborat.

Kitob nashrga bir qator muassasalar – Qatagʻon qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi, Namangan davlat universiteti, Isʼhoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti qoshidagi Qatagʻon qurbonlari xotirasi muzeyi hamkorligida tayyorlandi.

Kitob tarixiy voqelikni qayta tahlil qilish orqali xalqimiz oʻtmishi-ga yangicha nazar tashlashga undaydi. Uning xronologik doirasi 1860-yillardan 1991-yilgacha boʻlgan davrni qamrab oladi. Shu asno 130 yildan ortiq davom etgan ozodlik kurashlari tarixi yaxlit jarayon sifatida koʻrsatiladi.

“Xotira kitobi”ning tuzilishi Namangan viloyatidagi qatagʻonlar tarixini anglash uchun puxta ishlangan intellektual asos

vazifasini bajaradi. Mualliflar oddiy xronologik roʻyxat bilan cheklanib qolmasdan, qattol siyosatning har bir bosqichini alohida tahlil etish imkonini beradigan davriy yondashuvga tayanadi. Kirish qismida keltirilgan umumiy statistik maʼlumotlarga koʻra, 1865–1990-yillarda Namangan viloyatidan jami 2039 nafar vatandoshimiz mustabid tuzumning asossiz ayblovlari bilan jazolangan.

Ushbu raqam ortidagi fojia koʻlami va tabiatini ochib berish uchun kitob 6 ta mantiqiy-tadrijiy boʻlimga ajratilib, ular qatagʻonning turli bosqichlari, maqsadlari, nishonlari va uslublaridagi oʻzgarishlarni yaqqol koʻrsatib beradi.

Shu tariqa, kitobning tuzilishi shaxslar roʻyxatini mustamlaka tizimining jinoyatlari haqidagi tarixiy ayblov xulosasiga aylantiradi. Har bir qurbon haqidagi maʼlumotlar

standart formatda – toʻliq ism-sharif, tugʻilgan yili, yashash joyi, ayblov va hukmi tarzida berilgan boʻlib, bu kelajakdagi tadqiqotlar uchun qimmatli manba boʻlib xizmat qiladi.

Kitobning davriy tuzilishi faqat xronologik tartibni anglatib qolmay, chuqur mafkuraviy mazmunga ega. Mualliflar oʻn yilliklar boʻyicha oddiy taqsimlash yoʻlidan bormay, sovet tuzumining “Quloqlashtirish”, “Katta qirgʻin”, “Paxta ishi” kabi aniq siyosiy kampaniyalariga urgʻu beradi. Bu yondashuv qatagʻonlar tasodif yoki tartibsiz jarayon emas, aksincha, oʻzbek xalqining muayyan ijtimoiy qatlamlariga qarshi ongli va maqsadli uyushtirilgan hujumlar ekanini anglatadi.

Kitobning oʻziga xos tuzilishi undagi shaxslar, qatagʻon qurbonlari roʻyxatini oddiy maʼlumotlar toʻplami darajasidan istibod tizimi jinoyatlarini fosh etuvchi tarixiy hujjat darajasiga koʻtaradi.

Otabek MAXSUDJONOV,
Isʼhoqxon Ibrat muzeyi direktori



JADID SHIFOXONASI

ALOMATDAN ASORATGACHA

Olimjon PARPIYEV, oliy toifali
shifokor-otolaringolog:



— Hozir bolalarda burun bitishi, tomoq yallig'lanishi, quloq og'rig'i va ba'zan yiringli ajralmalar kelishi keng kuzatilyapti. Ko'pchilik ota-onalar buni shamollashga yo'yadi. Mutaxassislar ta'kidicha, ba'zida allergiya tufayli ham burun bo'shlig'ida shish paydo bo'lib, suyuqlik to'planadi va o'rta quloqqa o'tib, quloq yallig'lanishiga sabab bo'ladi.

Yana bir omil: xalq tilida "burundagi go'sht" deb ataladigan adenoidlar. Aslida, bu hammada bo'ladigan limfoid to'qima. Biroq tez-tez shamollash, yallig'lanish va allergiya oqibatida u kattalashib ketadi. Natijada, bola nafas olishda qiynaladi, tunda xirillab uxlaydi, burni doimiy bitib yuradi. Adenoid va allergiya bir vaqtda qo'zg'alganda esa muammo yanada og'irlashadi.

Bizda tomoq og'risa, avvalo, uy sharoitida davolashga harakat qilinadi. Tomoqni tez-tez chayish, shimadigan dorilar ko'p holatda og'riqni yengillashiradi. Biroq shifokor ko'rigi zarur. Chunki kasallikni erta aniqlash va davolash uning chuqurlashishining oldini oladi. Uydagi choralar faqat birlamchi yordam.

Masalan, laringitda ba'zi onalar: "Mening bolamni o'zimdan boshqa kim yaxshiroq bilardi?" deb o'zi davolashga urinadi. Biroq laringit hazillashadigan dard emas. Nima uchun? Chunki unda nafas yo'llari shishib ketadi, ovoz bo'g'iladi. Xirillagan ovozni eshitib ko'pchilik "shamolabdi" deb o'ylaydi. Aslida, bunga allergik reaksiya yoki muzday ichimlik, shirinlik, chanqaganda tez-tez sovuq narsa iste'mol qilish ham sabab bo'lishi mumkin.

Shu holatda tomoqni turli vositalar bilan artish, qolaversa, uy sharoitida sinovdan o'tmagan "xalqona" usullarni qo'llash mutlaqo noto'g'ri. Bu yordam bermaydi, aksincha, ahvolni og'irlashtiradi. Shuning uchun bolani shifokorga ko'rsatish kerak,

ertaga qoldirish, "o'tib ketar" deb kutish mumkin emas.

Ba'zan "sovuqni sovuq kesadi", deb shamollagan odamga muzqaymoq, salqin ichimliklar tavsiya qilishadi. Yoki "tomog'ingni kuydirib-kuydirib issiq sut, sho'rva ich", deyishadi. Bularning ilgama aloqasi yo'q. Sovuq mahsulotlar hatto sog'lom odamga ham ziyon yetkazishi mumkin. Xuddi shunday qaynoq mahsulotlar ham og'iz bo'shlig'i, tomoq, oshqozon-ichak sohasini zararlaydi.

Yuqoridagi holatlar organizmning chiniquqanlik darajasi bilan bog'liq. Kimdir bolaligidan muzqaymoq yeb yuradi, sovuq suv ichadi, lekin tomog'i og'rimaydi. Chunki tanasi shu ta'sirga o'rgangan, ya'ni chiniquqan. Bunday odam tomog'i og'riganda ham muzqaymoq yeyishi uning holatini yomonlashtirib qo'ymaydi. Ayrim ota-onalar bolasiga "sovuq narsa yema, kasal bo'lasan", deb qattiq taqib qo'yadi. Bola muzqaymoq yemay ulg'ayadi. Voyaga yetgach muzqaymoq yeydi va darhol tomog'i og'riydi. Nega? Chunki organizm tayyor emas, chiniquqan. Masalan, kimdir qish chillasida daryoga bamayilxotir sho'ng'iydi va hech nima bo'lmaydi. Boshqa bir odam shunday qilsa, birdaniga shamol uradi. Hammasi organizmning tayyorligiga bog'liq.

Har bir tana bir olam, o'ziga xos. Kimnidir tuzatgan dori boshqasini og'irlashtirishi mumkin. Chunki organizm shamollashdan boshqa kasalliklar ham bo'lishi mumkin va qo'llangan vosita o'sha zaif nuqtani qo'zg'atishi hech gapmas.


Bu holatlarning oldini olishda oddiy, lekin juda ahamiyatli qoidalar bor. Haddan tashqari issiq va juda sovuq narsalarni bir paytda iste'mol qilmaslik lozim. Masalan, issiq taom yoki choydan keyin darhol muzdek suv ichish kasallikni tez qo'zg'atadi. Salqin kunlarda olifta-garchilik qilmasdan, issiq kiyinib yurish kerak. Tomoq og'rig'i boshlanishi bilan darhol chora ko'rish zarur.

Shu oddiy tavsiyalarga amal qilinsa, hadeb dorixonaga yugurmaymiz, shifo izlab sarson bo'lmaymiz, eng muhimi, kasallikni ildizidan uzib qo'yamiz. Yana eslatish joiz, alomatlar kuchaysa, nafas olish qiyinlasha borsa, isitma tushmasa, shifokorga murojaat qilish shart.

Unutmang, uy sharoitida ham, shifokor ko'rigida ham alomatlarini emas, kasallik keltirib chiqaruvchi o'choqni davolashga e'tiborli bo'ling. Zero, sog'lik siz va yaqinlaringizga kerak. "Tanasi boshqa dard bilmas", deydilar. Aks holda, og'ir asoratlar qolishi, qisqa fursatda xastalik qaytalanishi mumkin.

Zarnigor IBROHIMOVA
yozib oldi.

XUSH KO'RDIK!



OQ O'RIK

Bu ayol bilan o'rik soyasida tanishganmiz. U to'kilgan mevalarni terayotgan paytda qizimning o'rik yegisi keldi. Aravachadagi ukasi-ning yiqilib ketishidan xavfsirab, daraxtga yaqinlasholmay turgan edim, qiyiqko'z, nimtabassumli ayol mevalarini biz tomon uzatdi. Kiyinish uslubini hisobga olmaganida, o'zimizning ayollarga o'xshab ketadi. Bir dona o'rikni qizimga uzatib, unga "spasibo" dedim. O'zing uchun olmading-ku, degandek qo'yarda-qo'ymay yana meva berdi. Rus tilida aytgan "rahmat, yetadi, kerak emas" kabi so'zlarimga javob ololmagach, inglizcha aytdim. Shunda u qiziq qilib "ramaat", ya'ni "rahmat", dedi jilmayib.

Goh inglizcha, goh o'zbekcha, goh imo-ishoralah bilan "umuminsoniy" tilda kechgan muloqotdan keyin ma'lum bo'ldiki, bu xonimning ismi-sharifi Mi Jung Jang, koreyalik.

"Yurtingizga kelishimdan avval tanishlarim menga ingliz yoki rus tilini o'rganishimni maslahat berishdi. Chunki Koreyada boshqa tillarda adabiyotlar yetarli, ammo o'zbek-koreys tili bo'yicha lug'atlar topish juda mushkul, yo'q hisobi. To'g'ri, bu yerda rus, ingliz tilini biladiganlar, ayniqsa, yoshlar juda ko'p ekan, ammo men o'zbekistonliklarga hurmat yuzasidan o'zbek tilini o'rganishga kirishdim", dedi u.

Shundan keyin kunora ko'rishadigan bo'ldik, tilni jonli muloqotda o'rganishni afzal ko'rar ekan. Uygatib qildim. Mo'jaz kitob javonimizni ko'rgan Mi Jung xonim shunday hayratlandiki, unga kitoblarni sovg'a qilmoqchiligimni bilib, hayrati battar oshdi. Dastlab o'zimning kaftdekkinaga birinchi kitobimni, keyin kattaroq adabiyotlar, adabiy-badiiy jurnallarni ko'rsatdim. U keyingi safar olishini aytib, jurnallarni uyimda qoldirdi. "Avval shu kitobni o'qib, sizga imtihon topshirib, keyin boshqa kitobni o'qiyman", deganiga hayron qoldim, rosti. Tayyor kitoblarni olamiga tushib qolsang-u, kaftdekkinaga kitob bilan cheklansang.

YURAGI O'ZBEKKA
AYLANGAN DUGONAM

Ha, ularda odat shunday ekan — kitob yig'ishdan ko'ra ko'proq o'qishga qiziqarkan. O'sha kundan boshlab men ham yarmida to'xtab qolgan kitoblarimni o'qishga kirishdim...

ASAL OYI O'ZBEKISTONDA

Xalqimizning "Qish g'amini yozda ye" degan dono naqliga amal qilib sharbat va tuzlamalar tayyorlayotсам, telefonimga xonimdan xabar keldi. Ko'rishgani vaqtim yo'qligiga ishora qilib jarayondan videolar jo'natdim. Oradan bir soatlar o'tib koreyscha ovqat va o'rikli murabbo solingan paket eshigim oldida turibdi. "Sizni bezovta qilmay, ovqat siz va bolalaringiz uchun yetarli, menimcha. Bu bizning milliy taomimiz kimbap, sizga yoqadi, degan umiddaman", degan xabar qoldiribdi. Undan darhol ortga qaytishini iltimos qilib men ham sovg'a berib, qayta bunday ovora bo'lmashgini ta'kidladim. "Siz menga qimmatbaho sovg'a — kitob berdingiz, evaziga tergan o'riklarimni qoldiray, desam, ko'nmadingiz. Bugun ularni murabbo qilib keldim. Siz mehribon insonsiz, bolalar bilan oson emas shuncha ish", deya qo'shimcha qildi. Eh, Mi Jung xonim, o'zbek ayollarining mehnatkashligini ko'rmabsiz, dedim ichimda.

Mi Jung xonimning aytishicha, uning turmush o'rtog'i janob Si Chan Park avtomobillarning yangi ko'rinishlarini yaratadigan dizayner. U yurtimizga shartnoma asosida ishga taklif qilinib, yangi loyihalar ustida ishlayotgan ekan. Mi Jung esa aniq fanlar sohasida o'qigan bo'lsa ham, ijodni his qiladi, turmush o'rtog'ini yaxshi tushunadi, qo'llab-quvvatlaydi.

Yetti yillik muhabbat qissalari shiringina to'yg'a ulanib, o'tgan yili nikohdan o'tishibdi. Xonim 50, janob 52 yoshda. Dugonamning aytishicha, Janubiy Koreyada erta turmush yoshi 30-35, normal turmush tarzi 40 dan yuqori hisoblanar ekan. Kuyov bo'lmish to'ydan ropparoq bir hafta, Mi Jung esa ikki oy o'tib O'zbekistonga kelibdi. "Asal oyimiz O'zbekistonda juda maroqli o'tyapti. Koreya kichik mamlakat, o'qish, ishlash qiyin, shuning uchun tushkunlik kayfiyati yuqori. Masalan, ilk ko'rishganimizdayoq meni uyingizga taklif qildingiz. Ishonch uchun rahmat, ammo bizda unday emas. Qolaversa, turmush o'rtog'ingiz bilan ham tanishtirdingiz.

Oilangizga yaqin ko'rganingiz uchun tashakkur. Ha, aytgancha, turmush o'rtog'ingiz chiroyli ekan", dedi u kulib suhbatlarimizning birida.

"Baribir, odam vatanini sog'ina-di, — dedi dugonam. — Kecha Meyjiksiti ("Magic city")dagi asosiy favvorani yoqishgan paytda koreyscha musiqa yangradi. Yana aynan men yoqtiradigan klassik musiqalardan. U paytdagi holatimni tasvirlab berolmayman, bolaligim, onam, singillarim ko'z oldimdan o'tdi. Shuning uchun u yerga har kuni borishni maqsad qildim, ammo endi yig'lamaslikka harakat qilaman".

"PAMKIN SOMSA..."

U sayohatlarga borib keldi. Goh Buxoroning qadim ko'chalaridan, goh Xivaning azim minorlaridan, qo'shiqlaridan gap ochib, goh lazzatining bir-ikki o'rgangan muqomlarini ham ko'rsatib bersa, goh mazali taomlaridan to'yib yeganini so'zlab berardi. Uning so'zlarini miriqib tinglash chog'ida, bora-bora talaffuzidagi kamchiliklar kamayganini sezib quvonaman. Bilishimcha, dugonamga "pamkin" (oshqovoq) somsa yoqgan ko'rinadi, unga tayyorlab berishga va'da berib, o'zbekchada "qovoq somsa" deyilishiga ishora qildim. U tilimizga katta hurmatsizlik qilganlikda o'zini aybdor sanab, boshini egib-egib, qayta-qayta uzr so'raydi. Men unga hammasi joyida ekanini aytib jilmayaman. Shunday qilib, qovoq somsa tugishga kirishib ketamiz. U ham bizga yordamlashadi. Bizning do'stligimizga e'tiqodlarimiz, millatimiz farqli ekani ahamiyatli emas edi.

"Shohsanam, o'rikni sog'inaman", deb qoldi u gap orasida. "O", tuppatauzuk shoira bo'lib ketasizov yaqinda, qarang, obrazli chiqyapti gaplaringiz", deyman uni ilhomlantirish uchun.

Uning safari yakuniga yetayotganini sezib, yuragim sel bo'ladi. Uni Koreyaga qo'yib yuborgim kelmaydi. Kinodagi mashhur iboraday, uni hamma yaxshi ko'radi, men, bolalarim, qo'shnilarim...

Bizda chiroyli xotin-qizlarni erkalab, "oq o'rik" deb qo'yishadi. Mi Jungga bu erkalash aynan mos tushar ekan. Bu yog'i o'zbekchilik, hurmatli odam ismi emas, maqomi yo taxallusi bilan aytiladi. Xullas, uning millati koreys, yuragi o'zbekka aylangan edi.

Shohsanam NISHONOVA

TILBILIM



"JIGI-JIGI" NIMA DEGANI?

Bolaligimda xotinalarning echki bolasini erkalab "jigi-jigi" deb chaqirganini ko'p eshitganman. Bundan sal ilgariroq xalq artisti Ozodbek Nazarbekov ham "jigi-jigi" degan qo'shiq aytib chiqdi. Hazrat Lutfiy g'azali bilan aytiladigan bu qo'shiqda shunday quyma misralar bor:

Furqating o'tturing meni tutma ravo, jigi-jigi,
Ko'nglum olib yoshunmag'il, bahri Xudo, jigi-jigi.
Qush tili andalibidek Lutfiy xasta yolborur,
Gul kibi chehradin oni tutma judo, jigi-jigi.

Xo'sh, Lutfiydek buyuk shoir g'azalga olib kirgan jigi-jigi so'zi asli qanday ma'noni anglatgan?

"O'zbek xalq ijodiy yodgorliklari" kitobida bu so'zga shunday izoh berilgan: "Jigi-jigi — erkalash hayqirig'i. Bolalarning qulog'ini cho'zib o'ynab, jigi-jigi deb erkalash, jigi-jigi qilish. Dostonlarda yorning qahramonga noz-u karashmasini ifodalovchi, har bandning oxirgi misrasi tarkibida keluvchi qiyiqir, undov so'z".

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da jigi-jigi undov so'zi echkilarni chaqirishda qo'llanadi deyilgan va bu so'zning yana bir izohi jikjik so'ziga havola etilgan. Jikjik so'zi "chumchuqsimonlar turkumining sariq moyuqlar urug'iga mansub qushcha" deb izohlangan.

Lutfiyda ishlatilgan bu so'z negadir Navoiyda uchramaydi.

Xullas, juda xalqona, o'ynoqi jigi-jigi so'zi chorlash, chaqirish, erkalash ma'nolarida ko'rinish beradi.

Eshqobil SHUKUR

TARMOQLARDA NIMA GAP?



O'ZBEK SHAXMATIDA TARIXIY KUN!

Javohir Sindorov tay-brekda Xose Martinezni mag'lub etib, Jahon kubogining yarim finaliga chiqdi!!!

Bu degani ikki nafar o'zbek shaxmatchisi — Nodirbek Yoqubboyev hamda Javohir Sindorov yarim finalda o'zaro bahs olib boradi!

Bu degani Jahon kubogi finalida 100 foiz bir nafar o'zbek shaxmatchisi o'ynaydi, degani.

VA ENG ASOSIYSI!!! Jahon shaxmat toji uchun yo'llanma beradigan Nomzodlar turnirida kamida bir nafar o'zbek

shaxmatchisi 100 foiz ishtirok etadi degani! Bunaqasi o'zbek shaxmati tarixida ilk marta bo'lmoqda!

Sababi Jahon kubogida dastlabki uchta o'rinni egallagan shaxmatchi Nomzodlar turniriga yo'llanma oladi. Hozir 4 nafar yarim finalchining 2 nafari o'zbeklar!

Barakalla! Yashavor, o'zbek o'g'lonlari!!! Xudo xohlasa, katta umidimiz, Nodirbek ham, Javohir ham Nomzodlar

turniriga yo'llanma oladi! Sababi yarim finalda yutqazganlar 3-o'rin uchun bahsda yana kuch sinashadi va unda g'alaba qozongan shaxmatchi ham Nomzodlar turnirida o'ynaydi. Demak, ikkala shaxmatchimizda ham ushbu nufuzli turnirga chiqish imkoniyati mavjud!

Xushnadbek XUDOYBERDIYEV
Telegram

Jadid

Muassislar:

O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI

"SHAHIDLAR XOTIRASI"
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Muhayyo Rustamova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan
mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar
muallifga qaytarilmaydi va ular
yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 195115 raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Adadi — 18 761

Shundan:

Kirill yozuvida — 7 119

Lotin yozuvida — 11 642

Media kuzatuvchilar — 69 325

Buyurtma: G — 1140.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi — 222.

Tashkilotlar uchun — 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,

Shayxontohur tumani,

Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20

Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00

Bosishga topshirildi: 21:00

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz